2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 177 (1776), 2026-yil 29-avgust, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

YANGI O‘ZBEKISTONNING KECHAGIDAN KUCHLI, BUGUNIDAN QUDRATLI OLTIN KELAJAGINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ

Yangi Toshkentda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida eng ulug‘, eng aziz bayramimiz – mustaqilligimizning 35 yilligi tantanali nishonlandi.

Davlatimiz rahbari, avvalo, butun xalqimizni mustaqilligimizning shonli sanasi bilan tabrikladi. Erishilgan yutuqlar e’tirof etildi. Islohotlar salmog‘i va shiddatiga yarasha yanada baland marralar belgilab olindi.

Bu xususda bir oz keyin to‘xtalamiz. Hozir bayram tadbiri bo‘lib o‘tadigan maydonga yetguncha ko‘ngildan kechgan o‘ylar haqida to‘xtalsak.

Yangi Toshkent sari yo‘l oldik. Yaqindagina yaydoq dala bo‘lgan kenglikda baland binolar qad rostlabdi. Shiddat bilan kechayotgan bunyodkorlik ishlariga qarab ketar ekanman, qalbni faxr hissi chulg‘aydi.

Ayni dam kostyumni yelkaga tashlab, mana shu fayzli ko‘chalar bo‘ylab sayr qilging, o‘ziga xos arxitektura asosida tiklanayotgan shaharning har bir tarhini kuzatging, zavq olging keladi. Axir ular qatida yangi O‘zbekistonning kun sayin taraqqiy etib borayotgan yo‘li — xalqimizning ko‘p asrlik orzu-umidlari ro‘yobi aks etgan. Beixtiyor Vatan taraqqiyotining tayanch jihatlari haqida o‘ylay ketaman.

Inkor etib bo‘lmas haqiqat mavjud: davlat va xalq bir maqsad atrofida birlashsa, har qanday marrani zabt etish oson. Bunday el dunyoda cheksiz kuch-quvvatga ega bo‘ladi. Bir el, yagona vatan bo‘lib birlashishga esa adolatli boshqaruv orqali erishiladi. Buni yangi O‘zbekiston bosib o‘tgan qisqa, lekin zalvorli yo‘l misolida yaqqol ko‘rib turibmiz.

Mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylantirildi. Xalqimizning yillar davomida yig‘ilib qolgan muammoli masalalari birma-bir hal etila boshladi. Ana shunday qizg‘in yangilanishlar pallasida Uchinchi Uyg‘onish davri poydevorini yaratishday katta marra oldik. Uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega va jahonga ikki marta Renessansni taqdim eta olgan xalqqina shunday katta marra olishga haqli! Muhimi, bu shunchaki orzu emas, balki aniq reja asosida bosqichma-bosqich bosib o‘tilayotgan taraqqiyot yo‘lidir!

Buni Yangi Toshkent misolida ham ko‘rish mumkin. Mamlakatimiz tarixida yangi sahifa bo‘lgan ushbu manzil tom ma’noda O‘zbekistonning ilm-ma’rifat o‘chog‘iga aylanib bormoqda. Hududda bir hafta nari-berisida Yangi O‘zbekiston universiteti, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti hamda O‘zbekiston milliy kutubxonasining muhtasham binolari foydalanishga topshirildi. O‘xshashi yo‘q “aqlli” shahar maqomidagi Yangi Toshkentda hammadan oldin o‘qituvchi va talabalar, ilm va ma’rifat ahli zamonaviy maskanga ega bo‘lishi ham yuqoridagi fikrlarimiz isboti.

Davomi 3-betda

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ BESH YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli mehmonlar!

Bugun muqaddas Vatanimiz mustaqilligining qutlug‘ o‘ttiz besh yillik bayramini katta iftixor va tantana bilan nishonlayapmiz.

Aziz xalqimiz, jumladan, muhtaram nuroniylarimiz, shijoatli yoshlarimiz, mo‘tabar ayollarimizni, yurtimizdagi barcha millat va elat vakillarini, xorijdagi vatandoshlarimizni ushbu ayyom bilan chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Eng ulug‘ bayramimiz Yangi Toshkentda o‘tkazilayotgani tantana shukuhini yanada oshirmoqda.

Kelgusida ilm-fan, ta’lim va madaniyat markazi bo‘ladigan ushbu hududda kuni kecha Yangi O‘zbekiston universiteti, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, O‘zbekiston milliy kutubxonasining muhtasham binolarini ishga tushirdik.

Bugun sizlarning ishtirokingizda ochiladigan favvora dunyodagi eng baland musiqali favvora sifatida “Ginnessning rekordlar kitobi”dan joy olgani ham bayram kayfiyatiga yanada baland ruh bag‘ishlaydi.

Bir necha yuz yillik orzular ro‘yobga chiqayotgan bu betakror makonda butun xalqimiz bilan hali yana ko‘plab quvonchli va tarixiy voqealarga guvoh bo‘lamiz.

Aminmanki, Yangi Toshkent poytaxtimizning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib, biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekistonning kuch-qudratini namoyon etadigan chinakam taraqqiyot markaziga aylanadi!

Qadrli do‘stlar!

Biz 1991-yilda xalqimizning xohish-irodasi va qat’iyati bilan o‘z davlat mustaqilligimizni qo‘lga kiritdik. Aslida, buyuk istiqlolimiz ildizlari uch ming yildan ziyod bo‘lgan davlatchilik an’analarimiz va qadimiy sivilizatsiyamiz tarixiga borib taqaladi.

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Mir Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz bashariyat tafakkuri xazinasini boyitgan.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz barpo etgan davlat esa adolat va bunyodkorlik timsoli sifatida tarix zarvaraqlaridan munosib o‘rin olgan.

Vatan ozodligi va milliy istiqlol yo‘lida jonini fido qilgan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid bobolarimizning hurriyat haqidagi orzu-niyatlari bugun Yangi O‘zbekistonda to‘liq ro‘yobga chiqmoqda.

Mustaqillik, eng avvalo, bizga shonu sharafimizni, muqaddas dinimizni, ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi.

Istiqlol tufayli biz o‘zligimizni angladik, nomi hamisha e’zozda bo‘lgan ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon etdik.

Ushbu hayajonli daqiqalarda bugungi erkin hayot uchun jonini fido qilgan ulug‘ ajdodlarimiz, jadidlar xotirasiga ta’zim bajo keltiramiz.

Mana shu tarixiy sanada o‘tgan 35 yil davomida mustaqilligimizni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shgan barcha marhum yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati va jasoratini yana bir bor e’tirof etishni joiz, deb bilamiz.

Birinchi Prezidentimiz, atoqli davlat va siyosat arbobi Islom Abdug‘aniyevich Karimovning yorqin xotirasini ehtirom bilan yod etamiz.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘ladi. Shu bois, biz islohotlarni boshlagan birinchi kunlardanoq xalqning qalbiga quloq soldik, aholining dardiga darmon bo‘lishni maqsad qildik. “Inson qadri uchun!” degan g‘oyani davlat siyosatining markaziga olib chiqdik. Birinchi galda “paxta qulligi”, “majburiy mehnat va bolalar mehnati”, “konvertatsiya cheklovi”, “propiska” kabi odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga barham berdik.

Davomi 2-betda

FIDOYI AJDODLARIMIZ JASORATI – HAMISHA IBRAT NAMUNASI

Mustaqillik bayrami arafasida Vatan ozodligi yo‘lida kurashgan qahramon ajdodlarimizni minnatdorlik bilan yod etamiz. Ularning jasorati bugungi erkin hayotimiz va milliy istiqlolimizning qadrini yanada teran anglatadi.

28-avgust kuni Shahidlar xotirasi xiyoboniga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, ulamolar, nuroniylar va ziyolilar yig‘ildi.

Qatag‘on qurbonlarini yod etish marosimida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Vatan fidoyilari haqiga Qur’on tilovat qilinib, duo o‘qildi. Elga osh tortildi.

Xiyobondagi ramziy qabr yonida ham Qur’on tilovat qilindi. Shu yerda davlatimiz rahbarining ulamolar va ziyolilar bilan tarixiy xotirani asrash, qatag‘on qurbonlari nomini tiklash hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari yuzasidan muloqoti bo‘ldi.

— Shu kunlarda el-yurtimiz bilan birgalikda mustaqilligimizning 35 yilligini katta xursandchilik bilan kutib olyapmiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — O‘ttiz besh yildan buyon hech kimga qaram bo‘lmasdan, mana shunday tinch va tiniq osmon ostida erkin va farovon yashayapmiz. Bu — katta baxt, bebaho boylik. Shunday ulug‘ kunlarda istiqlol va ozodlik yo‘lida halok bo‘lgan qahramon ajdodlarimizni eslash, ularning xotirasiga hurmat bajo keltirish — muqaddas burchimiz.

Davlatimiz rahbari fidoyi ajdodlarimizning qahramonligi hech qachon unutilmasligi, ularning jasorati xalqimiz uchun hamisha ma’naviy kuch manbai bo‘lib qolishini ta’kidladi.

— Barcha islohotlarimiz markazida turgan “Inson qadri uchun!” degan ezgu g‘oya jasur ota-bobolarimizning ruhlarini shod etish, orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ishlarimizni yanada kuchaytirishni talab etadi. Bu aziz insonlar xotirasi qancha e’zozlansa, bugungi tinch hayotimiz, milliy istiqlolimiz qadri shuncha oshadi, — dedi Prezident.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON – SINGAPUR MUNOSABATLARI RIVOJLANIB BORAYOTGANI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Singapur Respublikasining Katta vaziri Li Syan Lun boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Suhbat avvalida Katta vazir Singapur Prezidenti Tarman Shanmugaratnam va Bosh vaziri Lourens Vongning samimiy salomi hamda ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Singapur munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Siyosiy muloqot hamda barcha darajalardagi ikki tomonlama aloqalar faol qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Tovar ayirboshlash hajmi va qo‘shma korxonalar soni jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. Singapurning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari hajmi qariyb 2 milliard dollarni tashkil etdi.

Singapur ishbilarmonlarining yurtimizdagi investitsiyaviy faoliyatini kengaytirish rejalari qo‘llab-quvvatlandi. Strategik va innovatsion sheriklik bo‘yicha o‘rta muddatli qo‘shma dasturni ishlab chiqib, unda savdo, investitsiyalar, texnologiyalar transferi, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish, raqamlashtirish va boshqa yo‘nalishlarga ustuvorlik berishga kelishib olindi.

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish, Toshkent xalqaro moliya markazi va raqamli bank tizimini rivojlantirishda Singapurning ilg‘or tajribasini joriy etishga alohida e’tibor qaratildi.

Singapur oliy ta’lim muassasalarining mamlakatimizdagi faoliyati bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlanishi bildirildi.

Yuqori darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish jarayonini baholash va qo‘shma rejalarni muvofiqlashtirish uchun siyosiy va iqtisodiy tuzilmalar o‘rtasida muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish zarurligi ta’kidlandi.

Yaqinda O‘zbekiston BMTning Mediatsiya to‘g‘risidagi Singapur konvensiyasiga qo‘shilgani olqishlandi.

Xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash hamda mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA

HINDISTON BOSH VAZIRI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi 29-30-avgust kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Bo‘lajak muzokaralar kun tartibidan O‘zbekiston — Hindiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash hamda ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Tizimli siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish, savdo, energetika, kimyo, geologiya, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida aniq dasturlar hamda kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor e’tibor qaratiladi.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari hamda ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashiladi.

Uchrashuv yakunida ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plamini imzolash ko‘zda tutilgan.

O‘zA

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ BESH YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Eng asosiysi, fuqarolarimiz yuragidagi qo‘rquv hamda hadik o‘rnini ishonch va xotirjamlik egalladi. Har bir inson erkin va farovon yashaydigan jamiyat barpo etish uchun keyingi o‘n yilda tinimsiz izlandik, qattiq mehnat qildik.

Katta siyosiy iroda ko‘rsatib, O‘zbekistonni dunyoga keng ochdik. Xususan, chegara muammolari hal qilindi, qo‘shnilarimiz bilan do‘stlik va hamkorlik mustahkamlandi. Valyuta, soliq, bojxona va investitsiya siyosatida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Natijada “Iqtisodiy erkinlik indeksi”dagi o‘rnimizni 80 pog‘ona yaxshilab, “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldik.

Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2-3 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelingan bo‘lsa, hozirgi paytda 40-50 milliard dollar chet el sarmoyasi jalb qilinmoqda. Yurtimizga investitsiyalar bilan birga ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy bilim va yangi iqtisodiy imkoniyatlar kirib kelmoqda.

Biz uch yil oldin 2030-yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazishni reja qilgan edik. Global logistikadagi uzilishlar, dunyodagi notinch vaziyatga qaramasdan, bu vazifani shu yilning o‘zida ortig‘i bilan amalga oshiramiz va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kiramiz.

E’tiborli jihati — biz bunday yuksak natijalarga xalqimizning fidokorona mehnati, intellektual salohiyati hamda millat va davlat birdamligi tufayli erishyapmiz. Ijobiy o‘zgarishlarni har bir inson, har bir oila o‘z hayotida chuqur his etyapti, desam, fikrimga qo‘shilasiz, albatta.

Yangi davrda zamonaviy uy-joyga ega bo‘lgan 650 mingdan ziyod oilaning quvonchini so‘z bilan ta’riflab bo‘ladimi?

Minglab mahallalarimizga Yangi O‘zbekiston qiyofasi kirib bormoqda.

Kambag‘allik masalasini ochiq tan olib, uni keskin qisqartirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston tajribasini yaratdik. Ehtiyojmand oilalarning daromadi, kasbi, salomatligi, farzandlarining ta’lim olishi va yashash sharoitini yaxshilash bo‘yicha “mahallabay” ishlash tizimini yo‘lga qo‘ydik.

Izchil sa’y-harakatlarimiz tufayli bugungi kunda kambag‘allik darajasini 2017-yildagi 35 foizdan 4 foizga tushirishga erishdik. Ushbu raqamlar zamirida ro‘zg‘origa baraka kirib, turmush sifati yaxshilangan 10 million insonning quvonchi va shukronalik tuyg‘ulari mujassam.

Muhtaram yurtdoshlar!

Dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallashimiz uchun bizga bilimli, kelajak kasblarini puxta egallagan, mustaqil fikriga ega bo‘lgan yangi avlod mutaxassislari kerak. Shu bois, ta’limga sifat va mazmun olib kiryapmiz. Muallimning obro‘-e’tiborini tiklab, daromadini oshirib boryapmiz.

O‘tgan o‘n yilda, aholimiz 8 millionga ko‘paygan sharoitda ham bog‘cha qamrovini 78 foizga yetkazdik. Maktablarda 1,5 million qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni yaratildi. Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar tashkil etilgani farzandlarimizga yetakchi xorijiy ta’lim maskanlaridan kam bo‘lmagan darajada chuqur bilim egallash uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Yoshlarga xorijiy tillar va kasb-hunar o‘rganishlari uchun munosib sharoitlar yaratdik.

Oliygohlarda o‘qish uchun qulay sharoitlarni kengaytirganimiz hisobiga hozirgi kunda talabalar soni 1 million 600 ming nafarga yetdi. Quvonarlisi, yoshlarda bilim olishga ishtiyoq kuchaydi. Ota-onalar uchun farzandini oliy ma’lumotli qilish faqat orzu emas, erishsa bo‘ladigan maqsadga aylandi.

Ayniqsa, talabalarning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etayotgani — Uchinchi Renessansning o‘ziga xos qiyofasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki **bilimli qizlar — bilimli oila, bilimli avlod va ma’rifatli jamiyat deganidir.**

Biz ta’lim bilan bir qatorda ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni ham taraqqiyotimizning hal qiluvchi omili deb bilamiz.

Shu bilan birga, AT, sun’iy intellekt, kreativ iqtisodiyot kabi yo‘nalishlar rivojiga yangi ruh berib, juda katta harakatni boshlab yubordik. Bu orqali 10 million yoshlarimizni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kiramiz.

Istiqlol bayramimiz arafasida xitoylik hamkorlarimiz bilan “Samarqand — 2028” sun’iy yo‘ldoshini fazoga uchirganimiz bizga alohida g‘urur bag‘ishlaydi.

Mening niyatim: O‘zbekiston texnologiya sohalarida jahonga ilg‘or tashabbuslarni taklif qiladigan markazga aylanishi zarur.

O‘zbek tili raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo‘lishi lozim.

Aziz vatandoshlar!

Inson qadri haqida so‘z yuritganda, aholimizning sog‘lig‘i masalasiga alohida e’tibor qaratishimiz tabiiy. So‘nggi yillarda ushbu sohaga ajratilayotgan mablag‘ni 8 karradan ziyod oshirdik. Eng muhimi, sifatli tibbiy xizmat olish imkoniyati nafaqat markazda, balki hududlarda ham yaratildi.

O‘tgan davrda yurtimizda 652 ta yangi tibbiyot muassasasi barpo etilgani, xususiy sektorga keng imkoniyat berilgani tufayli tibbiy xizmatlar hajmi 3 karra oshdi. Yuqori malakali shifokorlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yib, ularga sharoit yaratganimiz o‘z natijasini beryapti. Ilgari xorijda amalga oshirilgan 100 dan ziyod murakkab diagnostika va davolash usullari bugun yurtimizda ham mukammal bajarilmoqda.

Umuman, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1991-yildagi 66,4 yoshdan 2025-yilda 75,4 yoshga yetgani, go‘daklar va onalar o‘limi ko‘rsatkichi 4 barobar kamaygani sohadagi islohotlarimizning eng muhim natijasidir.

Qadrli do‘stlar!

Jonajon Vatanimiz azaldan ulug‘ mutafakkirlar, aziz avliyolar, buyuk allomalar yurti bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosga munosib ravishda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg‘inoniy yodgorlik majmualari kabi betakror ilmiy-ma’rifiy dargohlarni barpo etdik.

Bu muhtasham va tabarruk maskanlar bugun nafaqat yurtimiz va islom olami, balki butun jahon ahlining haqli e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Biz bunday bunyodkorlik ishlarini jadal davom ettiramiz.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Bizning eng katta boyligimiz — ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan Yangi O‘zbekiston yoshlaridir. Intiluvchan va tirishqoq o‘g‘il-qizlarimizni qo‘llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar ochish uchun har yili 20-25 trillion so‘m ajratilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi biznes vakillarining 35 foizini yosh tadbirkorlar tashkil etyapti.

Tokio va Parij Olimpiya hamda Paralimpiya o‘yinlarida, dunyo maydonlarida yosh sportchilarimiz erishgan tarixiy yutuqlar xalqimizga cheksiz iftixor bag‘ishladi.

Futbolchilarimiz ilk bor jahon chempionatida ishtirok etib, o‘zbek sporti tarixida yangi sahifa ochdi. Ular boshlagan yo‘l albatta davomli va zafarli bo‘ladi deb ishonamiz.

Yaqin kunlarda Samarqandda katta sport anjumani — Jahon shaxmat olimpiadasi boshlanadi. Noyabr oyida esa mashhur grossmeysterimiz Javohir Sindorov jahon shaxmat toji uchun kurashga kirishadi.

Ushbu musobaqalarda shaxmatchi o‘g‘il-qizlarimga ulkan zafarlar tilayman!

Xalqaro fan olimpiadalarida, tanlov va festivallarda yuqori o‘rinlarni egallayotgan yoshlarimizni — Yangi O‘zbekiston yulduzlari, kelajak bunyodkorlari deb bilaman!

Oldinga qarab intilishdan va doimiy izlanishdan hech qachon to‘xtamang, aziz farzandlarim!

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugun biz tarixning yanada mas’uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Kelgusi o‘n yillik — biz uchun **milliy yuksalish davri** bo‘ladi.

Buni faqat va faqat xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi orqali o‘zimiz bunyod etamiz. Shu maqsadda kelgusi yillarda yurtimizda inson qadrini yanada yuksaltiradigan 7 ta milliy dasturni amalga oshiramiz.

Birinchi milliy dastur bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishdan iborat bo‘ladi.

Bolalarning 6 yoshli tayyorlov guruhlariga qamrovini qisqa muddatda 100 foizga olib chiqamiz. Xususiy bog‘cha tashkil qilish bo‘yicha mavjud imtiyozlar saqlab qolinadi.

Barcha maktablar xalqaro baholash dasturlari bilan to‘liq qamrab olinadi.

Yurtimizdagi texnikumlarda xalqaro ta’lim standartlarini joriy etamiz. Ularda yoshlarimizni yuqori daromadli kasblarga o‘qitishni yo‘lga qo‘yib, qamrovni 1 millionga yetkazamiz. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekistonda kasb egallamagan birorta yigit-qiz qolmaydi.

Biz kelgusi yillarda kamida 10 ta universitetimizni TOP mingtalikka kiritishni katta marra sifatida belgilaymiz.

Ikkinchi milliy dastur xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu maqsadda aholi salomatligi bilan bog‘liq davlat xarajatlarini kelgusi besh yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5 foizga yetkazamiz.

Biz tibbiyotda profilaktikani kuchaytirish orqali salomatlikni asrash modeliga o‘tamiz. Davlat tibbiy sug‘urtasi mamlakatning barcha xonadonlariga kirib boradi.

Ixtisoslashgan tibbiyotda raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida dunyoning eng nufuzli kamida 5 ta klinikasini olib kelamiz.

Yurtimizni zamonaviy tibbiyot, farmatsevtika, biotexnologiyalar va tibbiy ta’lim taraqqiy etgan maskanga aylantiramiz.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Uchinchi milliy dastur — iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish.

Buning uchun kelgusi o‘n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilamiz. Iqtisodiyotda yuqori o‘sish sur’atini saqlagan holda, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmi 300 milliard dollarga yetkaziladi, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratiladi.

Yoshlarimizning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda startap, venchur va sun’iy intellektni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishga aylanadi.

Shuningdek, kichik biznes — o‘rta biznesga, o‘rta korxonalar esa yirik kompaniya va korporatsiyalarga aylanishi uchun yaxlit ekotizimni yo‘lga qo‘yamiz. Bularning hisobiga kelgusi o‘n yilda jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 10 ming dollarlik marradan oshadi.

Aziz do‘stlar!

Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv va ekologiya masalalari yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Shu bois, **to‘rtinchi milliy dastur suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirishga qaratiladi.**

Kelgusi besh yilda ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalar qamrovini 100 foizga olib chiqamiz. Bu umummilliy marraga aylanadi.

Tabiatga munosabat — xalqning madaniyati, davlatning mas’uliyati va taraqqiyotning sifat ko‘rsatkichidir. Shuning uchun mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy harakatini yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz. Maktab, bog‘cha, shifoxona va ko‘p qavatli uylar atrofidagi yashil hududlar jamiyatning daxlsiz boyligi sifatida muhofaza qilinadi. Yaqin yillarda tuman va shahar markazlarida yashillik ko‘lamini 30 foizga yetkazamiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Adolat qaror topgan joyda iqtisodiy o‘sish ham, ijtimoiy ishonch ham yuksaladi.

Bu borada **beshinchi milliy dastur — sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashni umumiy qadriyatga aylantirishdan iborat.**

Buning uchun huquqiy tarbiyani maktabdan boshlab aniq tizim asosida yo‘lga qo‘yamiz. Fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha islohotlarimizni qat’iy davom ettiramiz. Kiberjinoyatchilik, giyohvandlik va odam savdosining oldini olish bo‘yicha choralarni yanada kuchaytiramiz.

Yashirin iqtisodiyot, uyushgan jinoyatchilik, ayollar va bolalar huquqini kamsitishga qarshi kurashni yangi bosqichga ko‘taramiz.

Aziz vatandoshlar!

Odamlarimizning kayfiyati, oilalarning farovonligi, yoshlarning orzu-istagi, tadbirkorlarning tashabbuskorligi, eng avvalo, mahallada namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun **oltinchi milliy dastur mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirishga yo‘naltiriladi.**

Endi davlat dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha yondashuv butkul o‘zgaradi. Tuman byudjeti, investitsiya dasturi hamda infratuzilma loyihalari mahalla buyurtmasi asosida ishlab chiqiladi. Bunda fuqarolarning talab va ehtiyoji, mahallaning farovonligi eng asosiy mezon sifatida belgilanadi.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Yettinchi milliy dastur — O‘zbekistonning tinchlik va do‘stlik diyori, bag‘rikeng o‘lka sifatidagi nufuzini har tomonlama yuksaltirishdan iborat.

Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a’zolari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda.

Bugungi notinch zamonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligidir.

Bizning ochiq, pragmatik va tinchlikparvar siyosatimiz uzoq muddatli taraqqiyotimizni ta’minlashga qaratilgan.

Markaziy Osiyoda ahil qo‘shnichilik, strategik sheriklik va do‘stlik aloqalarini kengaytirishda tarixiy yutuqlarga erishildi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Yevropa Ittifoqi, Amerika, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va arab-musulmon dunyosi davlatlari bilan munosabatlarimiz yanada mustahkamlandi. Sharqiy Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasida yangi hamkorlik yo‘nalishlari ochildi.

Mamlakatimiz bilan diplomatik munosabat o‘rnatgan davlatlar soni qariyb 170 taga yetdi.

O‘zbekistonni xalqaro diplomatiyaning muhim markaziga aylantirish uchun ko‘p qirrali, vazmin va muvozanatli tashqi siyosatni davom ettiramiz. Iqtisodiy diplomatiya tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Mamlakatimiz 2027-2029-yillarda Qo‘shilmaslik harakatiga ilk marotaba raislik qiladi. Dunyodagi 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan ushbu global tuzilma samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni faol ilgari suramiz.

Yon qo‘shnimiz bo‘lgan Afg‘oniston bo‘yicha konstruktiv siyosatimizni qat’iy davom ettiramiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan diplomatik korpus vakillariga, xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlariga, AQSH, Turkiya va Singapurdan kelgan yuqori martabali mehmonlarimizga samarali hamkorlik uchun alohida minnatdorlik bildiraman.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Bir fikrni ishonch bilan aytmoqchiman.

Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz.

O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q.

Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q.

Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!

Ishonchim komil, matonatli, mard va olijanob xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan ulug‘ maqsadlarga albatta yetadi.

Vatanimizning oltin davrini, yangi buyuk tarixini albatta barchamiz birgalikda yaratamiz!

Bizga mustaqillik ne’matini bergan Parvardigorimizga cheksiz shukronalar bo‘lsin!

Istiqlolimiz ijodkori va haqiqiy bunyodkori bo‘lgan xalqimizga shon-sharaflar bo‘lsin!

Sizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni bugungi ulug‘ bayram — O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi bilan yana bir bor tabriklayman.

Yurtimiz tinch, xonadonlarimiz obod va farovon bo‘lsin!

Yashasin O‘zbekiston Respublikasi!

Yashasin O‘zbekiston xalqi!

O‘ZBEKISTON VA HINDISTON STRATEGIK SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH UCHUN YANGI IMKONIYATLAR YARATMOQDA

2026-yil 29-30-avgust kunlari Hindiston Bosh vaziri davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keladi.

Bugun O‘zbekiston — Hindiston munosabatlari barqaror rivojlanish, siyosiy muloqotning yuqori darajasi hamda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport, gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlik izchil kengayib borayotgani bilan ajralib turadi.

Hindiston O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 26-dekabr kuni tan olgan. Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 18-mart kuni o‘rnatilgan. 1992-yil sentabrda Dehlida O‘zbekiston konsulxonasi ochildi va 1994-yilda u elchixonaga aylantirildi. 1988-yil avgustda Toshkentda ochilgan Hindiston Bosh konsulxonasi 1992-yilda elchixona maqomiga ega bo‘ldi.

1991-yildan 2026-yilgacha bo‘lgan davrda oliy darajadagi 12 ta o‘zaro tashrif amalga oshirilgani ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy muloqot muntazam ekanidan dalolat beradi.

O‘zaro aloqalarni mustahkamlashda davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari alohida o‘rin tutadi. 2018-yil 30-sentabr-1-oktabr kunlari O‘zbekiston Prezidentining Hindistonga davlat tashrifi bo‘lib o‘tdi. 2019-yil 17-18-yanvar kunlari esa O‘zbekiston Prezidenti “Jo‘shqin Gujarat — 2019” xalqaro investitsiya sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Hindistonda bo‘ldi.

2018-2019-yillardagi tashriflar doirasida umumiy qiymati 2,3 milliard dollarga teng 98 ta savdo-investitsiyaviy hujjat imzolandi.

2020-yil 11-dekabr kuni O‘zbekiston Prezidenti va Hindiston Bosh vazirining onlayn sammiti bo‘lib o‘tdi. Uning yakunlari bo‘yicha ikki tomonlama to‘qqizta bitim imzolandi hamda Yaqin do‘stlik va mustahkam sheriklik to‘g‘risida qo‘shma bayonot qabul qilindi.

So‘nggi yillarda ham ikki mamlakat yetakchilarining aloqalari izchil rivojlanmoqda. 2024-yil 23-oktabrda Qozon shahrida BRIKS sammiti doirasida O‘zbekiston Prezidentining Hindiston Bosh vaziri bilan uchrashuvi o‘tkazildi. 2025-yil 1-sentabrda Tyanszin shahrida SHHT sammiti doirasida davlat yetakchilarining muzokaralari o‘tkazildi.

Parlamentlararo hamkorlik o‘zaro aloqalarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. 2020-yil iyunda Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida Hindiston parlamentining yuqori va quyi palatalari — Rajya Sabha va Lok Sabha bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhlar tuzildi.

2025-yil fevralda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri tomonidan Hindiston parlamenti quyi palatasi — Lok Sabha bilan parlamentlararo hamkorlik guruhining yangi tarkibi tasdiqlandi.

Hindiston parlamenti quyi palatasi spikeri Om Birla boshchiligidagi delegatsiyaning 2025-yil 5-11-aprel kunlari O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley sessiyasi ishida ishtirok etgani muhim voqea bo‘ldi.

2026-yil fevralda Lok Sabha spikeri tomonidan parlamentning yuqori va quyi palatalari vakillaridan iborat Oliy Majlis bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhning yangi tarkibi tasdiqlangani parlament diplomatiyasini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik O‘zbekiston — Hindiston sherikligida muhim ahamiyat kasb etadi. 1992-yilda qabul qilingan Iqtisodiy va savdo hamkorligi to‘g‘risidagi bitim ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarning asosi bo‘lib, unga muvofiq o‘zaro savdoda eng ko‘p qulaylik yaratish rejimi joriy etilgan.

Shuningdek, 2024-yilda o‘zaro investitsiyalarni kengaytirish va uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratuvchi Investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish to‘g‘risidagi bitim ham imzolandi.

> **O‘zbekiston — Hindiston munosabatlarining jadal rivojlanishi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, gumanitar va hamkorlikning boshqa sohalarini qamrab oluvchi shakllangan shartnomaviy-huquqiy bazaga tayanadi. Bugunga qadar O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida 110 dan ziyod hujjat imzolangan.**

2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 33,3 foiz o‘sib, 1,3 milliard dollardan oshdi. Ijobiy dinamika joriy yilda ham saqlanib qolmoqda. 2026-yilning yanvar-iyun oylarida o‘zaro savdo hajmi 598 million dollarga yetdi. Bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 28,5 foiz ko‘pdir.

O‘zaro savdo tarkibi xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston eksportining asosini kimyo mahsulotlari, xizmatlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, rangli metallar hamda ulardan tayyorlangan buyumlar tashkil etadi.

Hindistondan qilinadigan importda esa farmatsevtika mahsulotlari, oziq-ovqat tovarlari, mexanik uskunalar, transport vositalari va ehtiyot qismlari, kimyo va elektrotexnika mahsulotlari salmoqli ulushga ega.

1992-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. 2026-yil 19-iyun kuni Toshkentda hukumatlararo komissiyaning 14-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi va uning doirasida ikki mamlakatning 150 dan ortiq tadbirkori ishtirokida O‘zbekiston — Hindiston biznes forumi uyushtirildi. Farmatsevtika, ta’lim, axborot texnologiyalari va “yashil” energetika sohalaridagi qo‘shma loyihalarga alohida e’tibor qaratildi.

2026-yil 3-avgust kuni Dehli shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston — Hindiston biznes forumi ishbilarmonlik aloqalariga qo‘shimcha turtki berdi. Bunday platformalarning o‘tkazilishi tadbirkorlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni kengaytirish, qo‘shma loyihalarni ilgari surish va o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini izlashga xizmat qiladi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik O‘zbekiston — Hindiston munosabatlarida alohida o‘rin tutadi va ikki mamlakat xalqlarining tarixiy rishtalari hamda bir-birining madaniy-ma’naviy merosiga bo‘lgan o‘zaro qiziqishiga tayanadi.

1995-yili Toshkentda ochilgan Hindiston madaniyat markazi gumanitar aloqalarni rivojlantirishda muhim maskandir. 2005-yilda u La’l Bahodur Shastri nomidagi Hindiston madaniyat markazi deb qayta nomlandi.

1998-yildan buyon Dehlida Hindiston — O‘zbekiston do‘stlik jamiyati faoliyat yuritib, ikki mamlakat o‘rtasidagi ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga hissa qo‘shib kelmoqda.

Ta’lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Toshkent shahridagi 24-maktab, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda ushbu oliy o‘quv yurtining akademik litseyida hind tili o‘qitiladi.

O‘zbekistonda Hindistonning to‘rtta oliy ta’lim muassasasi — Toshkentdagi Amiti universiteti, Andijondagi Sharda universiteti, Jizzaxdagi Sambhram universiteti va Buxorodagi Acharya universiteti filiallari faoliyat yuritmoqda. Asosiy ta’lim yo‘nalishlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektrotexnika va biznes menejmentni qamrab oladi.

2019-yil 24-iyul kuni Toshkent shahrida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining tashkil etilishi texnologik va ta’lim sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi.

Talabalar almashinuvi sezilarli darajada kengaymoqda. 2026-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida 13 mingdan ortiq hindistonlik talaba tahsil olmoqda.

Shu bilan birga, Hindistonda o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganish ham rivojlanib bormoqda. 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab Dehlidagi Jamiya milliya islomiya universitetida 2004-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha qisqa muddatli kurslar bakalavriatning akademik dasturi darajasiga ko‘tarildi. Universitetning ikkita o‘quv binosiga Sharqning buyuk mutafakkirlari — Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino nomlari berilgan.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi say-yohlik aloqalari ijobiy o‘sish sur’atini namoyon etmoqda. O‘zbekistonga kelgan hindistonlik sayyohlar soni 2020-yildagi 4800 dan 2025-yilga kelib 80 ming kishidan oshdi.

O‘zbekiston va Hindiston ko‘p tomonlama faol hamkorlik qilib, umumiy manfaatlarni ilgari surish va siyosiy muloqotni rivojlantirishda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardan muhim platforma sifatida foydalanmoqda.

Ikki davlat BMT, SHHT, BRIKS, Jahon savdo tashkiloti va Qo‘shilmaslik harakati doirasida yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri “Hindiston — Markaziy Osiyo” formatidir. U Hindiston va mintaqa davlatlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlarni birlashtirgan va ularning manfaatini xalqaro kun tartibida ilgari surishga qaratilgan “Global Janub ovozi” formatida ham faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston — Hindiston munosabatlarining jadal rivojlanishi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, gumanitar va hamkorlikning boshqa sohalarini qamrab oluvchi shakllangan shartnomaviy-huquqiy bazaga tayanadi. Bugunga qadar O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida 110 dan ziyod hujjat imzolangan.

O‘zbekiston va Hindiston sheriklikni yanada kengaytirish uchun salmoqli salohiyatga ega. Siyosiy ishonch, o‘sib borayotgan iqtisodiy aloqalar, sarmoyaviy imkoniyatlar, gumanitar hamkorlik va mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashdagi umumiy manfaatlarning uyg‘unligi yangi loyihalarga o‘tish hamda keng qamrovli strategik sheriklikning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun mustahkam zamin yaratadi.

“Dunyo” AA

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Kuchli siyosiy iroda sabab O‘zbekiston dunyoga keng quloch ochdi. Yaxshi qo‘shnichilik degan ibora hayotiy haqiqatga aylandi. Markaziy Osiyo — yagona kuch, yaxlit mintaqa degan qarash shakllandi.

DAVR NAFASI

3

2026-yil 29-avgust, 177-son

YANGI O‘ZBEKISTONNING KECHAGIDAN KUCHLI, BUGUNIDAN QUDRATLI OLTIN KELAJAGINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ

Boshlanishi 1-betda

Eng ulug‘ bayramimizning 35 yilligi Yangi Toshkentda o‘tkazilgani tantana shukuhini yanada oshirdi. Ayni damda yangi O‘zbekiston tanlagan yo‘li — xalqni rozi qilish orqali yuksak iqtisodiy, ilmiy taraqqiyot sari dadil borayotganini ko‘rsatdi.

Davlatimiz rahbari nutqining avvalida xalqimizni mustaqillik ayyomi bilan samimiy tabrikladi.

— Bir necha yuz yillik orzular ro‘yobga chiqayotgan ushbu betakror makonda butun xalqimiz bilan hali yana ko‘plab quvonchli va tarixiy voqealarga guvoh bo‘lamiz.

Aminmanki, Yangi Toshkent poytaxtimizning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib, biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekistonning kuch-qudratini namoyon etadigan chinakam taraqqiyot markaziga aylanadi, — dedi Prezidentimiz.

Qadimgi bitik “Avesto”da ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal tushunchasi mavjud. Ya’ni avval niyat paydo bo‘ladi. So‘ng u so‘z va amalga aylanadi. Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Uyg‘onish davrini yaratish niyatida xalqimiz uzoq yo‘l bosdi. Nihoyat qalbimizdagi ezgu niyat so‘zga ko‘chib, katta marralar belgilab olindi. Ana shu ezgu so‘zlar amal bilan birlashdi. Dastlab “paxta asorati”, majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berildi. Kecha paxta dalasida yurgan o‘qituvchi va o‘quvchilar bugun bor kuch va salohiyatini faqat ilmga qaratadigan bo‘ldi. Natijada bugun yoshlarimiz dunyoning eng bilimdon vakillari bilan nufuzli ta’lim dargohlarida yonma-yon o‘qiyapti.

Bundan tashqari, “konvertatsiya cheklovi”, “propiska” kabi odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga barham berildi. O‘z Vatanining poytaxtida arzimas hujjat sabab jarimaga tortilgan, yurak hovuchlab panalab yurgan yurtdoshlarimizning qo‘rquvi yo‘qoldi. Uning o‘rnini katta maqsadlar, baland marralar egalladi. Chunki qalbimizni ishonch va xotirjamlik egalladi.

Kuchli siyosiy iroda sabab O‘zbekiston dunyoga keng quloch ochdi. Yaxshi qo‘shnichilik degan ibora hayotiy haqiqatga aylandi. Markaziy Osiyo — yagona kuch, yaxlit mintaqa degan qarash shakllandi. Bunday o‘zgarishlarni sanayversak, oxiriga yeta olmaymiz. Demoqchimizki, ana shu o‘zgarishlar va ularga ishonch yurtdoshlarimizni yagona xalq, bir butun vatan sifatida birlashtirdi.

Shunday o‘ylar bilan davlatimiz rahbarining nutqini tinglar ekanmiz, sahna markazida, yuksakda hilpirab turgan bayrog‘imizga mahliyo bo‘ldim. Oniy lahzada yaqinda bo‘lgan qiziq holat yodimga tushdi. Endi ikki yoshdan oshgan o‘g‘limni olib tuman markazida ketayotgan edim, u bolalarcha shirin tili bilan “Ana, O‘zbekiston!” dedi. Avvaliga hech narsani tushunmadim. Keyin bilsam, u qo‘li bilan baland ustun tepasida hilpirayotgan bayrog‘imizni ko‘rsatayotgan ekan.

O‘g‘lim bola tasavvuri bilan bayroqni O‘zbekiston deydi. Buning ham o‘ziga xos tarixi bor. Shu yil futbol bo‘yicha jahon chempionati o‘yinlarini oilaviy tomosha qildik. Bolalarim ekrandagi muxlislarga taqlid qilib, qo‘liga bayroq oldi. “O‘zbekiston!” deya hayqirib, bayroqni baland ko‘tardi. O‘shanda o‘g‘lim ham opalariga taqlid qilgan edi.

Biz haqli ravishda faxr bilan jahon chempionatiga chiqish yurtimizni yana bir bor dunyoga tanitdi, deymiz. Ayni haqiqat! Ana shunday shonli yutuqlar Vatanimizni nafaqat dunyoga, balki endi tili chiqayotgan bolalarimizga ham tanitmoqda. Mana shu o‘y ko‘ngildan kechar ekan, dunyodagi eng baxtiyor inson ekanimni anglayman. Axir bot-bot takrorlayotganimiz — birdamlikning asl qiyofasi shu!

Islohotlar ko‘lami, natijadorligi, xalqaro maydondagi yirik ekspert va siyosatchilarning O‘zbekiston siyosatini e’tirof etib, davlatimiz rahbarini kuchli lider deya tan olishi zamirida mana shunday hayotiy haqiqatlar bor. Ha, bugun O‘zbekiston, uning xalqi kechagidan ko‘ra kuchli, ertaga bundan ham qudratli bo‘lishiga yuksak ishonch bor. Kechagi niyatlariga yetgan xalqimiz bugun yanada katta orzu va maqsadlar bilan yashamoqda.

Mustaqilligimizning 35 yillik shodiyonasida ushbu ishonch, orzu ezgu so‘zga ko‘chdi. Davlatimiz rahbari “Bugun biz tarixning yanada mas’uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Kelgusi o‘n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi.

Buni faqat va faqat xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi orqali o‘zimiz bunyod etamiz. Shu maqsadda kelgusi yillarda yurtimizda inson qadrini yanada yuksaltiradigan 7 ta milliy dasturni amalga oshiramiz”, deya ta’kidladi.

Eng ulug‘ ayyomning Yangi Toshkentda o‘tkazilishi xalqimizning bunyodkorlik, yaratuvchanlik qudratiga ishonchni yanada mustahkamladi. Ayni damda tanlagan yo‘limizning ramziy ifodasi ham bo‘ldi. Zero, birinchi milliy dastur bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishdan iborat bo‘ladi. Sodda qilib aytganda, bugun davlat bayrog‘ini Vatan deya anglay boshlagan avlod ertaga yuksak salohiyatli va muhimi, vatanparvar kadrlar sinfini yaratadi. Ana shu maqsadga erishishda ikkinchi milliy dastur uning to‘ldiruvchisi bo‘ladi. Ya’ni ushbu dastur xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Uchinchi milliy dastur — iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazishdan iborat. Shu o‘rinda bir muhim jihatni eslash kerak. Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlarga juda katta imkoniyatlar yaratildi. Hozir buni tariflab, sanab, vaqtingizni olish niyatimiz yo‘q. Ammo bir haqiqatni aytish kerak. Kecha qanday qilib jon saqlab qolish haqida qayg‘urgan tadbirkorlar bugun faoliyatini kengaytirish, xorijdan sarmoya olib kirib, xalqaro bozorlarga o‘z brendi bilan kirib borish haqida o‘ylayapti. Ana shunday shiddatli o‘zgarishlar iqtisodiyotimiz uchun katta marralarni olishni o‘rgatdi. Kelgusi o‘n yilda 450 milliard dollarlik xorijiy investitsiya jalb qilamiz. Iqtisodiyotda yuqori o‘sish sur’atini saqlagan holda, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish maqsad qilindi. Sanoatda esa 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni ochiladi.

Bularning barchasi texnologiya, sanoatlashuvni talab qiladi. Inson qadrini ulug‘layotgan mamlakat esa texnologik rivojlanish bilan birga tabiatni asrash haqida ham qayg‘uradi. Shu bois, to‘rtinchi milliy dastur suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirishga qaratiladi.

Har biri alohida katta tahlillarga arziydigan ushbu dasturlar yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lini to‘la qamrab olgan. Masalan, beshinchi milliy dastur sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashni umumiy qadriyatga aylantirishdan iborat. Mazkur dasturda ko‘rsatilgan har bir band mustaqillikning tayanch nuqtalaridir. Zotan, sud mustaqil bo‘lsa, adolat qaror topadi. Adolatli jamiyatda o‘sish ham, o‘zgarish ham bo‘ladi. Ana shunday jamiyat vakillari qonunlarga qadriyat darajasida qaraydi.





Sanoatda esa 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni ochiladi.

> **Hozir yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a’zolari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bugungi notinch zamonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligi ekaniga shubha yo‘q.**

> **Kelgusi o‘n yilda 450 milliard dollarlik xorijiy investitsiya jalb qilamiz. Iqtisodiyotda yuqori o‘sish sur’atini saqlagan holda, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish maqsad qilindi. Sanoatda esa 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni ochiladi.**

Aslida, ham qonunlar qadriyat bo‘lishi kerak. Tarixda ajdodlarimiz mahalla oqsoqolining gapini qonundek qabul qilgan. Chunki ular mahallada saylanib, saralanib chiqqan haqiqatparvar, elsevar va vatanparvar insonlar bo‘lgan. Ana shunday jihatlar sabab mahalla dunyoda o‘xshashi yo‘q boshqaruv tizimiga aylangan.

Yangi O‘zbekistonda ilm va ma’rifatga tayanib ish ko‘rilmoqda. Buni mahallaning imkoniyatlaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishda ham ko‘rish mumkin. Keyingi yillarda mahalla tizimi tubdan o‘zgardi. Shunchaki isloh qilish bilan cheklanilmadi, balki u davr ruhiga mos shaklga keltirildi. Kelgusi o‘n yillikka mo‘ljallangan dasturda mana shu islohotlar davom etadi. Ya’ni oltinchi milliy dastur mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirishga yo‘naltiriladi.

Birdamlik, ahillik haqida qancha ko‘p gapirsak, shuncha oz. Hozir ahillik har doimgidan ham ko‘ra dolzarb. Dunyo to‘fondagi qayiq misoli chayqalib turibdi. Ana shunday murakkab geosiyosiy vaziyatda mamlakatning harbiy, iqtisodiy qudrati xalq birdamligi bilan yanada mustahkamlanadi. Shu ma’noda, yettinchi milliy dastur — O‘zbekistonning tinchlik va do‘stlik diyori, bag‘rikeng o‘lka sifatidagi nufuzini har tomonlama yuksaltirishdan iborat etib belgilangani ayni muddao.

Hozir yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a’zolari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bugungi notinch zamonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligi ekaniga shubha yo‘q. Axir bo‘lar elning bolalari bir-birini botirim der, deya bejiz aytilmagan. Yangi O‘zbekistonning ochiq, pragmatik va tinchlikparvar siyosati sabab Markaziy Osiyoda ahil qo‘shnichilik, strategik sheriklik va do‘stlik aloqalari mutlaqo yangi bosqichga chiqib, yagona mintaqa bo‘lib birlashdik.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Yevropa Ittifoqi, Amerika, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va arab-musulmon dunyosi davlatlari bilan munosabatlarimiz yanada mustahkamlandi. Sharqiy Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasida yangi hamkorlik yo‘nalishlari ochildi.

Umuman olganda, mamlakatimiz bilan diplomatik munosabat o‘rnatgan davlatlar soni qariyb 170 taga yetdi. Bunga erishish oson kechmadi. Uning ortida uyqusiz tunlar, xalq dardida tinim bilmay qilingan mashaqqatli mehnat va vatanparvarlik ruhiga yo‘g‘rilgan komil ishonch bilan olg‘a intilish bor. Natijada O‘zbekiston xalqaro diplomatiyaning muhim markaziga aylanib bormoqda. Bugun dunyo davlatlari O‘zbekiston bilan hamkorlik qilish maqsadida bizga talpinmoqda.

Har bir mamlakatning taraqqiyot yo‘lida iqtisodiy barqarorlik muhim o‘rin tutadi. Uch ming yillik tariximiz ana shunday hayotiy haqiqatlardan guvohlik beradi. Ajdodlarimiz kuchli davlatchilik yarata olgani uchun ham dunyo bizga talpingan. Natijada Buyuk ipak yo‘li kabi karvon yo‘llari paydo bo‘lgan.

> **Bugun yangi O‘zbekistondagi islohotlar sabab barqaror moliyaviy o‘sishga erishyapmiz. Tashqi siyosatdagi ochiqlik, teng diplomatik aloqalarimiz ko‘p asrlik tarixiy karvon yo‘llarini qayta tiklayapti. Yangi O‘zbekiston dunyoning ma’rifiy markazi, iqtisodiy quvvati, tinchlik va tenglik diyori sifatida tanilmoqda.**

Ana shunday baland marralarni zabt etayotgan Vatan farzandi o‘laroq mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan tantanalarni kuzatish kishiga zavq beradi. Sahnada uch ming yillik tarixga ega xalqimizning kechagi kuni, buguni va ertasi aks etadi. Yurtimiz zaminida asos solingan davlatlar bayrog‘i bitta sahnada jamlangani faxr hissini ikki karra oshiradi. Xalqimiz boshdan o‘tkazgan sinovli kunlar aks etgan sahna chiqishi kechagi kunimizni yodga soladi. Beixtiyor bugunimizga shukrona aytasiz. Orzulari ro‘yobini bizning hayotimizda ko‘rayotgan jadid bobolarimiz ruhi oldida bosh egasiz. Dunyoga tanilib, millionlarni o‘ziga qaratgan xorijlik san’at vakillari o‘zbek tilida bayram bilan tabriklaganda qo‘llar qanotga aylanganday bo‘ladi.

Prezidentimizning o‘zbek tili raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo‘lishi lozimligi haqidagi fikri shu tarzda ro‘yobga chiqa boshladi degan xulosaga kelasiz. Axir har qanday katta natijalar kichik qadamlardan, mana shunday tanitish va tanishlardan boshlanadi!

Ha, xuddi shunday bo‘ladi! Negaki biz O‘zbekistonni texnologiya sohalarida jahonga ilg‘or tashabbuslarni taklif etadigan markazga aylantirmoqchimiz. Buning uchun esa barcha imkoniyatlar ishga solinib, aniq maqsad belgilab olingan. Bu xalqni rozi qilish, inson qadrini ulug‘lash, Vatan sha’nini yuksaltirish yo‘li!

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

FIDOYI AJDODLARIMIZ JASORATI – HAMISHA IBRAT NAMUNASI

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni tiklash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shahidlar xotirasi xiyobonidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi to‘liq rekonstruksiya qilinib, ekspozitsiyasi boyitildi, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi. Raqamli tizimlar va sun’iy intellekt yordamida ko‘rgazmalarning ta’sirchanligi oshirildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda tashkil etilgan qatag‘on qurbonlari muzeylari ham zamon talablari asosida jihozlandi. Ularning fondlari dunyoning turli nuqtalaridan keltirilgan noyob hujjatlar va fotosuratlar bilan boyitilmoqda.

2021-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan qatag‘on qurboni bo‘lgan 1 ming 200 dan ziyod yurtdoshimiz oqlandi. Joriy yilda sobiq mustabid tuzum davrida nohaq ayblanib, turli muddatlarga qamalgan yoki o‘limga hukm etilgan yana 161 nafar vatandoshimizning nomi oqlandi.

So‘nggi besh yilda jadid bobolarimiz merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Mustabid tuzumda nohaq qurbon bo‘lgan vatandoshlarimizning nomlari aniqlanib, ularning faoliyati, ilmiy va ijodiy merosi o‘rganilmoqda. Yuzlab, minglab fidoyi yurtdoshlarimiz haqidagi ma’lumotlar kitoblar, matbuot va ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga yetkazilmoqda.

Muloqotda o‘tgan asrning 80-yillarida ham minglab vatandoshlarimiz “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” degan soxta ayblovlar bilan siyosiy qatag‘onga uchragani qayd etildi. 1983-1990-yillarda 40 ming nafar o‘zbekistonlik tergov qilinib, 5 ming nafari jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bugun bu borada ham tarixiy adolat tiklanmoqda. Bunday ezgu ishlar izchil davom ettirilishi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari dunyoda qurolli mojarolar va siyosiy qarama-qarshiliklar kuchayib, ular bizga yaqin mintaqalarga ham kirib kelayotgani tashvishli ekanini ta’kidladi. Bu yurtimizdagi tinchlikni qadrlash, yanada jips va hamjihat bo‘lib yashashni talab etadi.

— Bizning yo‘limiz — tinchlik, do‘stlik va hamkorlik yo‘li. O‘zbekiston ushbu yo‘ldan hech qachon ortga qaytmaydi, — dedi Prezident.

Bugun yurtdoshlarimiz dunyoning istalgan mamlakatiga emin-erkin borib kelmoqda, O‘zbekiston barcha davlatlar bilan tenglik asosida hamkorlik qilmoqda. Bu mustamlakachilik zanjirlari va “paxta qulligi”dan butunlay ozod bo‘lganimizning amaliy ifodasidir.

Hayot va kelajakni bilim hamda ma’rifat asosida qurish, uzoq-yaqin mamlakatlar bilan do‘stona hamkorlik qilish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti ekani ta’kidlandi. Buyuk jadid bobolarimiz bejiz millatni uyg‘oqlikka, bilim va ma’rifatga chaqirmagan. Ularning kurash va ma’rifat maktabi bugun ham g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Shu bois, yoshlarning sifatli ta’lim olishi, vatanparvar insonlar bo‘lib voyaga yetishiga katta e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi o‘n yilda oliygohlar soni 77 tadan 205 taga yetkazildi, qabul kvotalari muntazam oshirib borildi. Jahondagi TOP-100 talikka kiradigan oliygohlarda 3 ming 500 dan ziyod farzandimiz ta’lim olmoqda. Maktab va maktabgacha ta’lim tizimlarida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

— Yoshlarni milliy g‘urur asosida tarbiyalashga alohida ahamiyat berishimiz kerak. Milliy g‘urur — insonning qalbini, yuragini, butun vujudini kuch-g‘ayratga to‘ldiradigan qudratli kuch. Milliy g‘ururi bor odam hech qachon yengilmaydi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Poytaxtimizda Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etildi, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasi butunlay qaytadan bunyod qilindi, Marg‘ilonda Burhoniddin Marg‘inoniy nomidagi markaz ishga tushirildi. Bular Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li — tinchlik, do‘stlik va bunyodkorlik, bilim hamda ma’rifat yo‘li ekanini tasdiqlaydi.

So‘nggi o‘n yilda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan islohotlar tufayli 100 mingdan ziyod yurtdoshimiz hojilik maqomiga ega bo‘ldi. Davlatimiz rahbari diniy jamoatchilik jamiyatda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, yoshlarga to‘g‘ri tarbiya berish jarayonlarida yanada faol ishtirok etishiga ishonch bildirdi.

— Bugun mana shu tabarruk maskanda turib, tinch-osoyishta hayotimiz, erishayotgan yutuqlarimiz uchun Yaratganga behisob shukronalar aytamiz. Mana shunday ozod va farovon kunlarni orzu qilib, armon bilan o‘tgan qahramon ota-bobolarimiz, jasur momolarimizning ruhlari shod bo‘lsin! Yurtimiz tinchlik, taraqqiyot va farovonlik diyori sifatida yanada gullab-yashnasin! Alloh taoloning o‘zi Vatanimizni panohida asrasin! — dedi Prezident.

Ulamolar qatag‘on qurbonlari va Vatan ozodligi yo‘lida jon fido etgan ajdodlarimiz ruhiga duo qilib, yurtimizdagi tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka barqaror bo‘lishini tiladilar.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

Ushbu mahobatli majmuada xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, buyuk allomalarimiz va jahongir ajdodlarimizning siymolari, yurtimiz taraqqiyotidagi muhim voqealar o‘z ifodasini topgan. Monument cho‘qqisidagi Humo qushi ozodlik va ezgulik g‘oyalarini, xalqimizning olijanob orzu-intilishlarini ifoda etadi.

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan marosimda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Toshkent shahar jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi.

O‘zA

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz.uz_news yuz.uz_news

Iqtisodiy konsentratsiya nazoratida 2019-2026-yillarda umumiy qiymati 13,2 milliard dollarlik 1181 ta bitimga rozilik berildi. Raqobatga salbiy ta’sir xavfi mavjud 31 ta bitim rad etildi.

Tahlil

RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH – YANGI O‘ZBEKISTON ISLOHOTLARINING TAYANCHI

Mustaqilligimizning qutlug‘ 35 yilligi arafasida mamlakatimiz bosib o‘tgan yo‘lni sarhisob qilar ekanmiz, yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining bosh mezoni tobora aniq ko‘rinadi: inson manfaati, xususiy tashabbus va erkin raqobat uchun keng imkoniyat yaratish. Davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini qisqartirish, bozorlarga kirishda teng sharoitni ta’minlash va iste’molchi tanlovini kengaytirish ushbu siyosatning uzviy qismiga aylandi.
Binobarin, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Raqobat bo‘lsa, aholining tanlash imkoniyati va sotib olish qobiliyati oshadi, odamlar rozi bo‘ladi”.

Xalilillo TO‘RAXO‘JAYEV,
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi

Raqobat bor joyda tadbirkor sifat va samaradorlik uchun kurashadi. Texnologiya va sarmoya kirib keladi. Iste’molchida tanlov paydo bo‘ladi. Shu ma’noda, raqobat siyosati iqtisodiy o‘sish vositasigina emas, balki iqtisodiy erkinlik va aholi farovonligining institutsional kafolatidir.

2017-yildan boshlangan o‘zgarishlar raqobat siyosatini alohida kampaniyadan davlat iqtisodiy siyosatining doimiy institutiga aylantirdi. Halol raqobat uchun sharoit yaratish, iqtisodiy faoliyat erkinligini kafolatlash va monopol faoliyatni qonun bilan cheklash prinsiplari Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

2023-yilda yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, ustun mavqeni suiiste’mol qilish va kartel kelishuvlariga qarshi kurashish, davlat yordami va iqtisodiy konsentratsiyani nazorat qilish, davlat korxonalari hamda raqamli platformalar faoliyatida raqobatni himoya qilishning zamonaviy vositalari joriy etildi.

Nazoratning mazmuni ham o‘zgardi: e’tibor qonunbuzilish sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rishdan ko‘ra, raqobatga to‘siqni oldindan aniqlashga qaratilmoqda. Shu asosda 4000 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat loyihasi o‘rganilib, ularning 52 foizida raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan normalar aniqlandi.

Davlat organlari va mahalliy hokimliklarning raqobatga zid 6700 ta qarori bekor qilindi yoki qonunchilikka muvofiqlashtirildi. Shuningdek, raqobatga zid 3500 ta harakat bartaraf etilib, asossiz olingan 912 milliard so‘mga yaqin mablag‘ qaytarildi.

Iqtisodiy konsentratsiya nazoratida 2019-2026-yillarda umumiy qiymati 13,2 milliard dollarlik 1181 ta bitimga rozilik berildi. Raqobatga salbiy ta’sir xavfi mavjud 31 ta bitim rad etildi. Shu bilan birga, 400 dan ortiq yirik korxona va davlat idoralarida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi amal qilmoqda.

Davlat ulushi qisqarmoqda

Iqtisodiy modeldagi asosiy burilish davlatning bozordagi rolini qayta belgilash bilan bog‘liq. Davlat xususiy biznes bilan ma’muriy ustunliklarga tayanib raqobatlashmasligi, balki hamma uchun bir xil qoidalarni ta’minlashi lozim.

Shu maqsadda “Sariq sahifalar tamoyili” (Yellow Pages Rule) joriy etildi: muayyan bozorda kamida beshta xususiy tadbirkor faoliyat yuritsa, u yerda yangi davlat korxonasini tashkil etish cheklanadi. Bu xususiy sektor ishlay oladigan sohada davlatning asossiz kengayishini to‘xtatishga xizmat qiladi.

O‘tgan davrda davlat ishtirokidagi korxonalarning YIMga nisbatan tushumi bo‘yicha ulushi 55 foizdan qariyb 30 foizgacha qisqardi. Ularning soni 3200 tadan 1700 tagacha kamaydi.

Tadbirkorlik faoliyatiga kirish shartlari ham yengillashtirildi: 160 turdagi litsenziya va ruxsat berish tartiblari bekor qilindi yoki soddalashtirildi, qator yo‘nalishlarda litsenziya o‘rniga xabardor qilish mexanizmi joriy etildi. Shu tariqa davlat ishtirokini qisqartirish xususiylashtirish bilan cheklanmay, davlat va xususiy korxona uchun haqiqiy teng raqobat maydonini shakllantirishga qaratilmoqda. Natijada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2016-yilda 257,7 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib 474,9 mingtaga yetdi, ya’ni qariyb 85 foiz oshdi.

Shuningdek, 2016-yilda yalpi ichki mahsulot 199,3 trillion so‘mdan, 2025-yil yakuniga kelib 1849,7 trillion so‘mga yetdi. Bu iqtisodiyot hajmining qariyb 9,3 barobar oshganini ko‘rsatadi.

Eksklyuziv huquqdan ochiq bozorga

Bozorga kirishni cheklagan eksklyuziv huquqlar va individual imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish raqobat islohotlarining amaliy yo‘nalishiga aylandi. 24 ta faoliyat turi bo‘yicha eksklyuziv huquqlar bekor qilindi, 39 ta sohadagi individual imtiyozlar qisqartirildi yoki qayta tartibga solindi.

Masalan, 2025-yildan “O‘zbekekspertiza”, “O‘zInjiniring”, Milliy PR markazi, “Sag agro MTP” va O‘zbekiston standartlar institutiga berilgan ayrim eksklyuziv huquqlarning bekor qilinishi yuzdan ortiq tadbirkorlik subyekti uchun tegishli xizmat bozorlariga kirish imkonini ochdi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 28-fevraldagi “Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan eksklyuziv huquq faqat jamoat xavfsizligi, aholi salomatligi, milliy mudofaa, tabiiy ofat va epidemiya kabi obyektiv zaruratlar mavjud hollarda hamda uch yildan oshmagan muddatga berilishi belgilandi. Natijada bozordagi ustunlikni ma’muriy qaror emas, samaradorlik, sifat va innovatsiya belgilashi uchun huquqiy asos kuchaydi.

Tabiiy monopoliyalarga yondashuvda korxona emas, aniq xizmat va bozor markazga qo‘yildi. Shu asosda asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida amalga oshirilmaydigan 56 ta korxonaning maqomi qayta ko‘rib chiqildi. Raqobat shakllangan sohalardagi 6 ta xizmat turi tabiiy monopoliyalar ro‘yxatidan chiqarildi.

Natijada tabiiy monopoliya subyektlari soni 2018-yildagi 140 tadan 2026-yilga kelib 78 taga, ya’ni 44 foiz qisqardi. Bu bozorda texnologiya va yangi ishtirokchilar paydo bo‘lgan sari monopol maqomi ham qayta baholanishi kerakligini ko‘rsatadi.

Aviatsiya bu jarayonning ko‘rinarli misolidir. 2017-yilda bitta mahalliy aviatashuvchi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2025-yilda ularning soni 15 taga yetdi. Yo‘lovchilar oqimi qariyb besh baravar o‘sib, 15 millionni tashkil etdi. Shundan 12 millioni xalqaro qatnovlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Narxni talab va taklif shakllantirishi kerak

Bozor iqtisodiyotining asosiy sharti narxning talab, taklif va raqobat ta’sirida shakllanishidir. Shu maqsadda un, non, paxta moyi, don, yonilg‘i, mineral o‘g‘itlar va boshqa tovarlarni qamrab olgan 28 turdagi tovar va xizmat bo‘yicha ma’muriy narx belgilash mexanizmlari qayta ko‘rib chiqildi.

Liberallashtirish bilan bir vaqtda til biriktirish, sun’iy taqchillik, ustun mavqeni suiiste’mol qilish va birja manipulyatsiyalariga qarshi nazorat kuchaytirildi. Ko‘rilgan choralar natijasida ayrim bozorlarda suyultirilgan gaz narxi 38 foiz, bug‘doy 14 foiz, fermerlar uchun karbamid bahosi 25 foiz pasaydi. 145 ta subyektda 78 milliard so‘mlik sun’iy narx oshirishning oldi olindi. Birja savdolaridagi 344 ta manipulyatsiya holati bo‘yicha 105 milliard so‘mni qaytarish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Iste’molchi huquqlarini himoya qilishda ham natija bevosita aholi manfaatida aks etmoqda. 2025-yilda qariyb 41 mingta murojaat ko‘rib chiqilib, 383,4 milliard so‘mlik mablag‘ni iste’molchilarga qaytarish chorasi ko‘rildi. Gaz, kommunal xizmatlar, yonilg‘i va dori-darmon kabi yo‘nalishlarda o‘tkazilgan tizimli o‘rganishlar 17 million iste’molchining huquqlarini tiklashga xizmat qildi.

Raqamli nazorat

Bozorlar raqamlashgani sari nazorat ham ma’lumotlarga tayanishi zarur. Fair Tech yagona axborot tizimi, Fair Price, Product Info va Pharm Info modullari 32 ta davlat organining axborot resurslari bilan integratsiya qilindi.

Ilgari 10-20 kun talab etilgan ayrim ma’lumotlarni olish muddati 15 daqiqagacha qisqardi. Tahlil jarayoni 5 baravar tezlashdi. Ushbu imkoniyatlar asosida 204 ta subyekt va 165 ta tovar moliya bozorida ustun mavqega ega deb e’tirof etildi, 93 ta korxonada ustun muzokara kuchi, 9 ta raqamli platformaning 6 turdagi xizmatida ustun mavqe aniqlandi.

Raqamlashtirish nazorat bilan cheklanmay, qarorlarni chuqur tahlil va prognozga tayangan holda qabul qilishga ham xizmat qilmoqda. Raqobat siyosati va iste’molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi Garvard universitetining Iqtisodiy murakkablik indeksi metodologiyasi asosida Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida dastlabki tahlillarni o‘tkazdi. Bu yondashuv hududning ishlab chiqarish salohiyatiga yaqin, ammo yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan yangi mahsulotlarni aniqlash imkonini beradi.

Sirdaryo viloyati misolida 500 dan ortiq tovardan iqtisodiy murakkabligi yuqori 40 turdagi mahsulot bo‘yicha investitsiya imkoniyatlari ajratib olindi. Ularning ehtimoliy bozori qo‘shni mamlakatlarda 2,6 milliard, Rossiyada 8 milliard, Turkiyada 4 milliard dollardan ortiq deb baholangan.

Ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar bozorida ekonometrik modellar orqali narx dinamikasini oldindan baholash amaliyoti ham yo‘lga qo‘yildi.

2025-2026-yillarda tuxum, sut, kartoshka, guruch, shakar, sabzi, piyoz, parranda va mol go‘shti bahosi bo‘yicha prognozlarning o‘rtacha aniqligi 80 foizni tashkil etdi. Bu xavflarni narx keskin oshganidan keyin emas, oldinroq ko‘rish va tegishli choralarni asosli belgilash imkonini oshiradi.

2025-yildan “Biznes faolligi indeksi” amaliyotga joriy qilinib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi

400 dan ortiq yirik korxona muntazam so‘rovga qamrab olinmoqda. Shuningdek, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Meksika tajribasi asosida Hududiy raqobatbardoshlik indeksi shakllantirilib, 14 ta hudud investitsiya, mehnat, infratuzilma, ijtimoiy barqarorlik va raqobat muhiti bo‘yicha baholanmoqda.

Bunday indekslar islohot samarasini respublika miqyosidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar emas, hudud va tarmoq kesimida ko‘rishga yordam beradi.

Xususiy tashabbus uchun keng iqtisodiy makon

Islohotlarning asosiy samarasi xususiy tashabbus uchun iqtisodiy makon kengayganida ko‘rinadi. Paxta va g‘alla, fuqarolik aviatsiyasi, elektron to‘lovlar, sement va qurilish materiallari, kabel va metallurgiya mahsulotlari kabi ilgari yuqori darajada konsentratsiyalashgan 30 ga yaqin sohada raqobat muhiti yaxshilandi.

Jumladan, xalqaro aviatashish, elektron to‘lovlar, sement, qurilish oynasi, kabel, metall mahsulotlari, paxta va bug‘doy kabi yirik tovar bozorlarida raqobat muhiti yaxshilandi va xususiy sektor ulushi sezilarli oshdi.

Bozorda taklifning kengayishi ham shu jarayonni ifodalaydi: 2019-yilda tovar nomenklaturasi 4100 tur atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda 5600 turga yetdi. Yangi mahsulot ortida yangi ishlab chiqaruvchi, sarmoya, ish o‘rni va iste’molchi uchun qo‘shimcha tanlov turadi.

Shuning uchun davlat ishtirokini qisqartirishning haqiqiy mezoni faqat xususiylashtirilgan obyektlar soni emas. Asosiy ko‘rsatkich — xususiy biznes uchun ochilgan bozorlar, tenglashgan shartlar va raqobat tufayli paydo bo‘layotgan yangi imkoniyatlardir.

Islohotlarning ortga qaytmasligi, avvalo, ularning huquqiy va institutsional asosi shakllangani bilan belgilanadi. Raqobat va iqtisodiy erkinlik prinsiplari Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlandi. Raqobat ta’sirini oldindan baholash, “Sariq sahifalar tamoyili”, davlat yordami nazorati va monopoliyaga qarshi komplayens kundalik boshqaruv amaliyotiga kirdi.

Ikkinchi tayanch — xususiy sektorning o‘zi. Bozorga yangi ishtirokchilar kirishi, yopiq sohalarning ochilishi va iste’molchi tanlovining kengayishi islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdor doirasini kengaytirdi.

Uchinchi omil — O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi. Jahon savdo tashkilotiga a’zolik bo‘yicha muzokaralar eksklyuziv huquqlarni qisqartirish, davlat yordamini tartibga solish, litsenziyalarni soddalashtirish va raqobat neytralligini ta’minlash kabi o‘zgarishlarni yanada mustahkamlamoqda. Shu ma’noda, raqobatni rivojlantirish vaqtinchalik chora emas, yangi O‘zbekiston iqtisodiy modelining uzoq muddatli qoidasiga aylanmoqda.

Hal qiluvchi mezon

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish vazifasi belgilangan. Bu xususiy investitsiyalarga yangi bozorlarni ochish va raqobat mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan sohalarda davlatning bevosita xo‘jalik ishtirokini yanada qisqartirishni talab qiladi.

2030-yilgacha 16 turdagi davlat monopoliyasini bosqichma-bosqich bekor qilish, temir yo‘l tashuvlari, avtomobil yo‘llarini qurish va boshqarish, gaz hamda elektr ta’minoti kabi yo‘nalishlarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Keyingi bosqichda 15 ta bozorda monopoliya va ustun mavqeni cheklash, 10 dan ortiq eksklyuziv huquqni bosqichma-bosqich bekor qilish, parallel import cheklovlarini bartaraf etish va tovar belgilaridan foydalanishda zamonaviy xalqaro tamoyillarni joriy etish rejalashtirilmoqda.

Energetikada to‘laqonli gaz va elektr energiyasi ulgurji bozorlarini shakllantirish, xususiy ishlab chiqaruvchilarning infratuzilmaga teng kirishini ta’minlash; temir yo‘lda infratuzilma va tashish funksiyalarini ajratish; aviatsiyani yanada liberallashtirish; asosiy infratuzilma tarmoqlarida mustaqil iqtisodiy regulyatorlarni rivojlantirish ustuvor vazifalardan bo‘lib qoladi.

Bunda maqsad davlatni iqtisodiyotdan butunlay chiqarish emas. Strategik energetika va transport infratuzilmasi, milliy xavfsizlik bilan bog‘liq obyektlarda davlatning zarur ishtiroki saqlanadi. Asosiy masala — davlat ishtirokining oqilona chegarasini belgilash va u kamaygan sari bozor qoidalarining sifati hamda nazorat samaradorligini oshirish.

Mustaqillik xalqning o‘z taqdiri va taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilash huquqidir. Uning iqtisodiy mazmuni esa insonning mulkdor bo‘lish, tadbirkorlik qilish, yangi g‘oyani amalga oshirish va o‘z mehnati hamda bilimi bilan muvaffaqiyat qozonish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, raqobatni rivojlantirish va davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini qisqartirish mustaqillik g‘oyasining mantiqiy davomidir. Bozorda kimning ma’muriy resursi kuchli ekani emas, kim samarali, innovatsion va iste’molchiga kerakli ekani hal qiluvchi mezonga aylanishi lozim.

2030-yilga borib, xususiy sektor yetakchilik qiladigan, raqobat innovatsiya va samaradorlikni harakatga keltiradigan, davlat esa adolatli qoidalar kafili bo‘lgan iqtisodiyotni barpo etish — kelgusi taraqqiyotning asosiy shartlaridan.

Mustaqilligimizning 35 yilligi ana shu yo‘lda erishilgan natijalarga munosib baho berish, bir vaqtning o‘zida istiqboldagi marralarga qat’iy ishonch bilan qarash uchun tarixiy fursatdir.

E’TIROFDAN KUCH OLAYOTGAN JASORATLI INSON

Oramizdagi odamlar

Hayotda shunday insonlar bo‘ladiki, hech qanday to‘siq ularni maqsadidan qaytara olmaydi. Termiz shahrida yashovchi yakka tartibdagi tadbirkor Furqat Qurbonovni ham ular safiga qo‘shish mumkin. Qahramonimizda 11-12 yoshida zo‘rayib boruvchi mushaklar distrofiyasi kasalligi aniqlandi. Shu tariqa aravachada harakatlanadigan bo‘lib qoldi. Ammo jismoniy imkoniyatning to‘satdan cheklanishi uning irodasini buka olmadi.

— Faoliyatimning boshlanishi bir voqea bilan bog‘liq, — deydi tadbirkor Furqat Qurbonov. — Ishonasizmi, davlat tomonidan menga aravacha berishganidan so‘ng mahallaga chiqib, aylanib, o‘zgarishlardan zavqlanadigan bo‘ldim. Hamma ish bilan mashg‘ul, hamma bunyodkorliklar bilan band. Ilk tadbirkorlik ishimni nogironlik nafaqasi bilan boshlagandim. Hatto muzlatkich yo‘qligi sabab qo‘shni xonadonning muzlatkichidan foydalanganman. Bir kuni hokim yordamchisi eshik taqillatib keldi. Sizga imtiyozli kredit ajratsak, eplaysizmi, dedi. Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir. Xitoydan 16 million so‘mlik pishiriq sexi olib kelib, ish boshladik. O‘n turdagi non va non mahsulotlari ishlab chiqaramiz. Mahalladagi besh ayolni ish bilan ta’minladik. Oila a’zolarimdan 4 nafari ham shu korxonada ishlaydi. Hozir har oyda o‘rtacha 15-20 million foyda olaman.

Furqat Qurbonov rasman 1-guruh nogironi. Lekin u davlat beradigan nafaqaga qarab qolmagan, olg‘a intilib, boshqalarga ish haqi beradigan ishbilarmon yigit. Jamiyatimizning faol a’zosi. Faoliyati ham ancha kengaygan. U tayyorlayotgan sifatli non va oziq-ovqat mahsulotlari bozorda o‘z xaridoriga ega. Bundan tadbirkor ham, ishchilar ham, mijozlar ham mamnun.

Ha, mehnat qilgan — elda aziz. Intilishlari izsiz ketmadi. Mamlakatimiz yetakchisining nazariga tushdi. Furqat Qurbonov “Jasorat” medaliga munosib ko‘rildi.

— Oila davrasida o‘tirganimizda shu yangilikni eshitdik. Juda xursand bo‘ldim. Ro‘zg‘orimizni butlash ilinjida boshlagan ishimiz sabab elga tanildim. Bu yurtimizda inson qadri ulug‘lanayotganing yaqqol misoli, — deydi Furqat Qurbonov. — Yaqinda soliqdan yana yengilliklar berildi. Bu faoliyatimiz uchun juda katta imkoniyat. Mana shunday qo‘llovlar sifatli mahsulot turlarini ko‘paytirishimizga rag‘bat bo‘lyapti.

Yurtimizda Furqat Qurbonov singari halol mehnat qilib, oilasiga, mahallasiga yurti rivojiga hissa qo‘shaman degan kishi borki, barcha yo‘llar ochiq. Ayniqsa, yosh tadbirkorlarning qo‘llab-quvvatlanishi, e’tirof etilishi yanada ahamiyatli. Bu e’tibor ularning ishtiyoqini yanada oshirib, marralarni katta olishiga turtki bermoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘zbekiston va Hindiston munosabatlari nafaqat ikki davlat manfaatlariga, balki Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi mintaqalararo bog‘liqlikni mustahkamlash, tarixiy sivilizatsion aloqalarni yangilash, iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro barqarorlikni ta’minlash yo‘lida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mulohaza

Nuqtayi nazar

BERUNIY NIGOHIDAN TOJMAHALGACHA

ASRLAR SINOVIDAN O‘TGAN DO‘STLIKNING BOQIY ILDIZLARI

Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining O‘zbekistonga rasmiy tashrifi nafaqat siyosiy, diplomatik va iqtisodiy doiralarda, balki ikki xalqning keng jamoatchiligi va qalb to‘rida alohida aks sado bermoqda.

Sadriddin SUYAROV, jurnalist

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar asrlar sinovidan o‘tgan, tarix siyohdonida o‘chmas qilib muhrlangan ma’naviy, madaniy va chuqur insoniy rishtalarga tayanadi. Bu zamonlar to‘fonida ham yemirilmagan, teran ildizlari bir-biriga tutashib ketgan boqiy daraxtdir.

Ikki buyuk sivilizatsiya o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ko‘z oldimizda avvalo buyuk qomusiy olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning mahobatli siymosi gavdalanadi. Uning “Kitob-ul hind” (“Hindiston”) asari o‘zga madaniyat, e’tiqod, til va falsafaga bo‘lgan sharqona bag‘rikenglik va yuksak hurmatning oliy namunasidir.

Beruniy hind zaminiga ushbu o‘lka va xalqning ruhini uqish, boy madaniyati va ilmini anglash ishtiyoqida qadam qo‘ygan edi. U sanskrit tilini mukammal egallab, Markaziy va Janubiy Osiyo xalqlari tafakkuri o‘rtasida ilk ma’rifiy va ilmiy ko‘prik soldi.

Asrlar davomida bu ko‘prikdan nafaqat olimlar va savdogarlar, balki davlatchilik madaniyatini yuksaltirgan buyuk arboblar ham o‘tdi.

Tarix zarvaraqlari va mo‘tabar manbalar ko‘rsatadiki, Dehli sultonligi asoschisi va birinchi sultoni Qutbiddin Oybek kelib chiqishi asli zamonaviy O‘zbekistonning janubiy hududlaridan bo‘lgan. Bugun Dehli osmoniga bo‘y cho‘zib turgan, Sharq me’morligining betakror mo‘jizasi hisoblanmish Qutb Minor obidasi aynan shu ajdodimizning boqiy merosi, ikki zamin o‘rtasidagi mustahkam tarixiy poydevorning va uzoq asrlik do‘stlikning yorqin ifodasidir.

Bu obida poyida turganingizda, tuproqlarimiz va taqdirlarimiz naqadar mushtarak ekanini ruhan his qilasiz.

O‘zbek va hind xalqlarining ma’naviy yaqinligi, ayniqsa, adabiyot va san’at gulshanida yanada teranroq, yorqinroq namoyon bo‘ladi. Sharq she’riyatining sarbaland cho‘qqilari bo‘lmish Amir Xusrav Dehlaviy, teran satrlari bilan qalblarni larzaga solgan Mirzo Bedil va so‘z san’atining betakror sultoni Mirzo G‘olib kabi buyuk siymolarning ota-bobolari va ildizlari aynan o‘zbek zaminiga borib taqaladi. Allomalar qonida markaziy osiyolik ajdodlarning irodasi, qalamida esa hind falsafasining nafis badiiyati gulladi.

Ularning qalamidan to‘kilgan bebaho durdonalar hind va sharqona irfonning tengsiz uyg‘unlashuviga aylandi. Ushbu adabiy oqim Alisher Navoiydan tortib, Furqatu Ogahiygacha, Boburdan to Nodirabegimgacha bo‘lgan shoirlarimiz ijodiga beqiyos manba va ma’naviy ozuqa berdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari — boburiylar sulolasi esa bu ikki madaniyatni yagona san’at va me’morlik shoh asariga aylantirdi. Dunyo tan olgan mo‘jizalardan biri deb e’tirof etiladigan Tojmahal va mahobatli Qizil qal’a ana shu tarixiy uyg‘unlikning, o‘zbek va hind madaniyatlari tutashgan cho‘qqining boqiy ramzidir.

Bu iliqlik, qadriyatlar mushtarakligi va ruhiy yaqinlik nafaqat tarix sahifalari yoki muzey eksponatlarida muhrlangan, balki kundalik hayotimizda, tilimizda va tafakkurimizda yashashda davom etmoqda.

Hindistonda yillar davomida faoliyat yuritgan, bu ajoyib mamlakatning turli hududlarida bo‘lgan inson sifatida ishonch bilan ayta olamanki, xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘xshashlikni deyarli har kuni, har bir muloqotda va insoniy munosabatlarda kashf etish mumkin.

Bu yaqinlik men uchun kundalik mehnat jarayonida ishonchli suyanchga, ijodiy va kasbiy ilhom manbaiga aylangan.

Agar tillarimizga e’tibor qaratsangiz, lingvistik mo‘jizaning guvohi bo‘lasiz. Xususan, urdu tili shakllanishida turkiy so‘zlarning o‘rni beqiyos. Bugun ham hind va urdu tillarida faol qo‘llanilayotgan “qo‘shin”, “yigit”, “xonim”, “ulug‘” va boshqa minglab tub turkiy so‘zlar shunchaki lingvistik fakt yoki tasodif emas, til, shuur va tafakkur ildizlarimiz tutashligining yaqqol ifodasidir.

Tildan tashqari mentalitetimiz va dunyoqarashimizdagi o‘xshashliklar ham odamni hayratga soladi.

Oilaviy muhitdagi chuqur mehr-oqibat, kattalarga va ota-onaga yuksak hurmat, mehmonni Yaratganning nuri deb bilish, samimiyat va bag‘rikenglik kabi tushunchalar har ikki xalqning qonida va suyak-suyagida bor. Raj Kapur, Hema Malini, Amitabh Bachchan, Ayshvariya Ray, Shohrux Xon va boshqa kino yulduzlarining o‘zbek xonadonlariga jigargohdek va o‘z odamidek kirib kelgani, hind kuylarining davralarimizda yangragani manbasi ham aynan shu teran ruhiy yaqinlikdadir.

Bugungi kunda ko‘p asrlik va ma’naviy do‘stlik tarixiy xotiralar bilan cheklanib qolmay, mutlaqo yangicha, izchil va zamonaviy qiyofada rivojlanmoqda.

Hozir Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon va boshqa qator shaharlarimizdagi nufuzli tibbiyot oliy bilim yurtlarida minglab hind yoshlari tahsil olmoqda, yurtimizning mehmondo‘st muhitida o‘z kelajagini barpo etmoqda.

Shu bilan birga, ko‘plab yurtdoshlarimiz Hindistonning dunyoga dong taratgan zamonaviy tibbiyot markazlarida salomatligini tiklab qaytmoqda, axborot texnologiyalari, to‘qimachilik, farmatsevtika va boshqa sohalardagi millionlab dollarlik investitsiyaviy loyihalar xalqlarimiz farovonligiga xizmat qilmoqda.

Yana bir e’tiborli jihat, so‘nggi yillarda Hindistondan O‘zbekistonga intilayotgan sayyohlar oqimi keskin ko‘paydi.

Hind sayyohlari uchun Samarqand va Buxoroning moviy gumbazlari, Toshkentning zamonaviy va osoyishta ko‘chalari, Xivaning afsonaviy qal’alari alohida joziba manbaiga aylanmoqda. Ular yurtimizga Beruniy va Boburning vatani, ruhan o‘ziga juda yaqin bo‘lgan muqaddas zaminni ko‘rish, uning havosidan nafas olish va madaniy merosdan bahramand bo‘lish uchun kelmoqda. Bu turizm oqimi insoniy aloqalarni mustahkamlab, xalqlarimizni bir-biriga yanada yaqinlashtirmoqda.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi “yumshoq kuch” nafaqat o‘tmish xotiralariga, balki kelajakka yo‘naltirilgan intellektual va madaniy hamkorlikka tayanmoqda. Tarixdagi ma’naviy yaqinlik bugungi ta’lim va turizm sohasidagi muvaffaqiyatlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining O‘zbekistonga tashrifi bu uzoq va boy tarixga ega boqiy kitobning navbatdagi yorqin sahifasidir.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar vaqt sinovlaridan o‘tgan sivilizatsiyalararo do‘stlikdir. Bugungi global geosiyosiy o‘zgarishlar davrida ushbu hamkorlik Janubiy va Markaziy Osiyoni bog‘lovchi mustahkam va barqaror ko‘prikka aylanib bormoqda.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida imzolanadigan muhim shartnomalar va belgilanadigan istiqbolli rejalarning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan asosiy kuch Beruniy nigohidan boshlanib, Qutb Minor va Tojmahal orqali xalqlarimiz qalbiga tutashgan samimiy do‘stlik, oqibat va yurakdoshlik ruhidir. Bu ruh esa zamonlar osha yashayveradi.

YANGILANAYOTGAN TARIXIY SIVILIZATSION ALOQALAR

IQTISODIY TARAQQIYOT VA XALQARO BARQARORLIKNI TA’MINLASH YO‘LIDA MUHIM QADAM

Qadimiy karvon yo‘llari orqali bog‘langan Movarounnahr va Hind diyori asrlar davomida nafaqat mahsulotlar, balki g‘oyalar, bilimlar, san’at, adabiyot va ma’rifat almashinuvi makoni bo‘lib kelgan. Bugun esa ana shu tarixiy meros O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi zamonaviy strategik sheriklik, iqtisodiy diplomatiya, investitsiyaviy hamkorlik, ta’lim va madaniy aloqalar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Gulchehra RIXSIYEVA, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, professor

Bu munosabatlar tarix, madaniyat, savdo, ilm-fan, ma’naviyat va insoniy muloqot qatlamlarida shakllangan chuqur sivilizatsion yaqinlikka tayanadi. Shu ma’noda, Toshkent va Dehli o‘rtasidagi bugungi muloqot o‘tmishdan meros yaqinlikni kelajak taraqqiyoti bilan bog‘layotgan yangi siyosiy va iqtisodiy jarayon sifatida baholanishi mumkin.

Ikki xalqni birlashtirib turuvchi mushtarak tarixiy rishtalar, qadimiy savdo yo‘llari, Buyuk ipak yo‘li merosi, ilm-fan, adabiyot, san’at, tabobat va ma’naviy qadriyatlar kabi omillar mavjud. Zotan, Toshkent va Dehli, Samarqand va Agra, Buxoro va Haydarobod kabi tarixiy shaharlar ikki xalq xotirasidagi abadiy yaqinlik ramzidir. Bu haqda davlatimiz rahbari “Hindiston — Markaziy Osiyo” birinchi sammitidagi nutqida so‘z yuritar ekan, ikki davlat aloqalarining ildizlari juda olis tarixga borib taqalishini, ming yillar davomida xalqlarimiz o‘rtasida savdo va gumanitar almashinuvlar bo‘lganini alohida ta’kidlagan edi.

> **“Ilmiy va ta’lim sohalaridagi hamkorlik O‘zbekiston — Hindiston strategik sherikligining inson kapitaliga yo‘naltirilgan muhim tarkibiy qismi sanaladi. Bu borada Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti alohida ilmiy-akademik platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Universitetda hind tili, Hindiston tarixi, madaniyati, siyosati va xalqaro munosabatlardagi o‘rni bo‘yicha ilmiy izlanishlar qilinishi, hindshunoslik maktabi shakllangani ikki davlat o‘rtasidagi ma’rifiy aloqalarga mustahkam asos yaratadi.**

Zamonaviy davrda esa bu tarixiy yaqinlik strategik sheriklik bilan mustahkamlanayotgani bugungi islohotlarning natijasi o‘laroq yuz berayotir. O‘zbekiston va Hindiston munosabatlarining yangi bosqichida siyosiy-diplomatik muloqot asosiy tayanch vazifasini bajarmoqda. Davlat rahbarlari, hukumatlar, parlamentlar, vazirliklar va sohaviy idoralar o‘rtasidagi uchrashuvlar hamkorlikni tizimli ravishda ilgari surmoqda. Bunday muloqotlar faqat umumiy bayonotlar bilan cheklab qo‘ymay, ikki tomonlama kun tartibini aniq iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy va ta’lim loyihalariga bog‘lamoqda.

O‘zbekiston — Hindiston strategik sheriklik hamda ko‘p qirrali munosabatlarida farmatsevtika va kimyo sanoati, raqamli iqtisodiyot, energetika, konchilik, qishloq xo‘jaligi, qurilish, turizm va transport-tranzit yo‘nalishlaridagi hamkorlik, o‘zaro madaniyat va kino kunlarini tashkil etish, hududlar darajasidagi almashinuvlarni faollashtirish masalalari muhim o‘rin egallamoqda.

Toshkent va Dehli o‘rtasidagi muloqotlar izchil, ko‘p qatlamli va amaliy natijadorlikka yo‘naltirilgan tus olmoqda. O‘zbekiston uchun Hindiston Janubiy Osiyodagi yirik strategik hamkor, Hindiston uchun esa O‘zbekiston Markaziy Osiyoga chiqish, mintaqaviy bog‘liqlikni kuchaytirish va tarixiy-sivilizatsion aloqalarni yangilash uchun muhim sherikdir.

Mamlakatlar 2011-yilda strategik sheriklikni e’lon qilgan bo‘lib, u yillar davomida siyosiy muloqot, xavfsizlik, iqtisodiyot, fan-texnika, ta’lim, madaniyat va xalqaro tashkilotlar doirasidagi o‘zaro qo‘llab-quvvatlash orqali mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston va Hindiston BMT, SHHT, “Hindiston — Markaziy Osiyo” muloqoti, xalqaro xavfsizlik platformalari va iqtisodiy hamkorlik formatlari doirasida muloqot olib bormoqda. Ayniqsa, Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish, Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlash, transport yo‘laklarini rivojlantirish hamda xalqaro savdo zanjirlarini diversifikatsiya qilish ikki tomon uchun ham dolzarb.

Bugungi global taraqqiyot asosida iqtisodiy munosabatlar turibdi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy hamkorlik ham so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda. Mazkur jarayonlarda savdo ko‘rsatkichlari, investitsiyaviy loyihalar, qo‘shma korxonalar, sanoat kooperatsiyasi, farmatsevtika, sog‘liqni saqlash, AT, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik va logistika asosiy yo‘nalishlarga aylanmoqda.

2026-yildagi mamlakatlararo iqtisodiy uchrashuvlarning o‘zigina ushbu sohaning qay darajada rivojlanayotganini ko‘rsatib beradi. Xususan, 19-iyun kuni Toshkentda Hindiston — O‘zbekiston savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyasining 14-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda mamlakatlar erishilgan yutuqlar, bartaraf etilishi kerak bo‘lgan muammolar va kelgusida foydalanish mumkin bo‘lgan imkoniyatlarning istiqbolli rejalarini muhokama qildi.

Iyul oyidagi hukumatlararo komissiya yig‘ilishida esa farmatsevtika, tibbiy uskunalar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, qayta ishlangan oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi texnikasi, mashinasozlik, elektrotexnika, elektronika, smartfonlar, avtomobil va butlovchi qismlar, to‘qimachilik, kimyo, sog‘liqni saqlash, ta’lim, turizm, logistika va biznes xizmatlari bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston va Hindiston munosabatlarining eng chuqur poydevori madaniy yaqinlikdir. Ikki xalq o‘rtasidagi aloqalar qadimiy savdo yo‘llari, ilmiy maktablar, adabiyot, musiqa, kino, til, dinlararo muloqot va xalq diplomatiyasi orqali shakllangan. Hind madaniyati O‘zbekistonda, o‘zbek madaniyati esa Hindistonda iliq qabul qilinadi. Hind kinosi, raqslari, musiqasi va yoga amaliyoti o‘zbekistonliklar orasida keng tanilgan bo‘lsa, O‘zbekistonning tarixiy shaharlari, maqom san’ati, hunarmandligi va islom sivilizatsiyasi merosi hind jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otadi. Toshkentdagi La’l Bahadur Shastri nomidagi hind madaniyat markazi ikki xalq o‘rtasidagi madaniy diplomatiyaning muhim maskanlaridan biridir.

Bugungi taraqqiyotning asosiy omili tabiiy resurslar emas, balki bilim, texnologiya, malakali kadrlar va ilmiy salohiyat bilan belgilanmoqda. Shu jihatdan ikki mamlakat munosabatlarida ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar yo‘nalishi alohida strategik ahamiyatga ega. Chunki Hindiston axborot texnologiyalari, tibbiyot, farmatsevtika, muhandislik, kosmik tadqiqotlar, raqamli davlat xizmatlari va startap ekotizimi bo‘yicha dunyoda e’tirof etilgan tajribaga ega.

O‘zbekiston esa yosh demografik salohiyati, oliy ta’limdagi islohotlar, ilmiy markazlar va Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan Hindiston uchun istiqbolli hamkor hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu yurtning to‘rtta universiteti filiali faoliyat yuritmoqda. Bular Toshkentdagi Amiti universiteti, Andijondagi Sharda universiteti, Jizzaxdagi Sambhram universiteti va Buxorodagi Acharya universiteti filiallaridir.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida hindshunoslik yo‘nalishida alohida maktab shakllangan bo‘lib, hind tili va adabiyoti, tarixi va madaniyati, iqtisodiyoti va siyosati bo‘yicha har yili 50 ga yaqin mutaxassis tayyorlanadi. Joriy yilning 22-iyul kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Hindistonning O‘zbekistondagi elchisi boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda oliy ta’lim, ilm-fan, akademik almashinuv, hindshunoslikni rivojlantirish, professor-o‘qituvchilar va talabalar mobilligini qo‘llab-quvvatlash, qo‘shma ta’lim dasturlarini ishlab chiqish masalalari muhokama qilindi.

Ilmiy va ta’lim sohalaridagi hamkorlik O‘zbekiston — Hindiston strategik sherikligining inson kapitaliga yo‘naltirilgan muhim tarkibiy qismi sanaladi. Bu borada Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti alohida ilmiy-akademik platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Universitetda hind tili, Hindiston tarixi, madaniyati, siyosati va xalqaro munosabatlardagi o‘rni bo‘yicha ilmiy izlanishlar qilinishi, hindshunoslik maktabi shakllangani ikki davlat o‘rtasidagi ma’rifiy aloqalarga mustahkam asos yaratadi.

Hozir universitetning Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti tarkibidagi Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabida hind, urdu va Osiyoning boshqa tillari o‘qitilmoqda. Hind tilining o‘zi turli ta’lim yo‘nalishlarida 238 bakalavrning o‘quv jarayoniga kiritilgan, yana 60 talaba uni ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rganmoqda. Magistratura bosqichida ham bu til bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Ilmiy salohiyat masalasi e’tiborga loyiq. Universitetda faoliyat yuritayotgan sakkiz hindshunos pedagogning barchasi C1 darajadagi til sertifikatiga ega, ulardan besh nafari ilmiy darajali mutaxassisdir. Ular tomonidan 10 ta monografiya, 8 ta darslik, 8 ta o‘quv qo‘llanma, 3 ta lug‘at va 2 ta tarjima to‘plami nashr etilgan. Professor-o‘qituvchilarning Hindiston universitetlarida malaka oshirishi, talabalar uchun esa til amaliyoti yo‘lga qo‘yilgani ta’lim va ilmiy tadqiqotni bevosita Hindiston akademik muhiti bilan bog‘lash imkonini bermoqda.

Mamlakatimizda shakllangan hindshunoslik an’anasi Hindiston ilmiy maktablari bilan bevosita hamkorlikda yangi manbalar, yangi tadqiqot mavzulari va yosh mutaxassislar avlodini yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega. Kelgusi vazifa mavjud ilmiy maktabni, uning manbashunoslik bazasini kengaytirish va ikki xalq mushtarak tarixiy-madaniy merosini xalqaro ilmiy muomalaga olib chiqishdan iborat.

O‘zbekiston va Hindiston munosabatlari nafaqat ikki davlat manfaatlariga, balki Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi mintaqalararo bog‘liqlikni mustahkamlash, tarixiy sivilizatsion aloqalarni yangilash, iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro barqarorlikni ta’minlash yo‘lida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik siyosiy muloqotdan madaniy hamkorlikkacha bo‘lgan keng maydonda yangi istiqbollarni ochib bermoqda.

OZOD QALBNING POYTAXTI – VATAN

Muhtarama ULUG‘OVA

Tong — musaffo! Yuragingda shuurni uyg‘ot,
Fikr-u qalbing qatlarida ilm — nurni uyg‘ot.
Jon-jahoning jo emas so‘z — yaltiroq qog‘oz,
“Dunyoda bir dunyoman!” deb g‘ururni uyg‘ot.

Obihayot, obi mehr kutar bu tuproq,
Mehnatlardan, zahmatlardan gullar bu tuproq,
Yozda yonib, qishda to‘ng‘ib so‘rar bu tuproq:
“Nihol o‘stir, sara don ek, men — yerni uyg‘ot!”

Deymiz: “Navoiydan hikmat, so‘z qoldi meros,
Qalam bilan u zot topdi basharda e’zoz”,
Satrlari shoir umrin chizgisi xolos...
Tang‘ima so‘z beshigiga umrni, uyg‘ot!

Sen dunyosan, so‘z — shu mo‘jaz dunyo ovozi,
Lafz-u amal o‘rtasida shayin — tarozi.
Aldamaydi mezon: kim rozi, kim norozi?
Qalbingda so‘z toza qoni — sururni uyg‘ot.

Xayoldagi saroy emas, shu bog‘lar — Vatan,
Darmon qo‘shib suvlar tutar cho‘ng tog‘lar — Vatan.
Qulun, serka, chorva boqqan o‘tloqlar — Vatan,
Dardingga em topar hatto qumloqlar — Vatan.

Tashrifingdan chaqnagan sham, chiroqlar — Vatan,
Zobit posbon ovul, shahar, qishloqlar — Vatan.
To tirikmiz — yelkasida ardoqlar Vatan —
Kamoliga boring — botil, zohirni uyg‘ot!

Bag‘ringdagi bolajonning baxt taxti — Vatan,
Bobo, momo yuragining quvvati — Vatan.
Orzu gulin mevasi to‘q daraxti — Vatan,
Dunyolarning saodatin chin naqdi — Vatan.

Ulug‘larning meroslarin hikmati — Vatan,
Ozod qalbning tug‘ sanchilgan poytaxti — Vatan!
Nasib etsin: ko‘rsin sening rohating, Vatan,
Yurakda pok niyat, g‘ayrat, sururni uyg‘ot!

RAG‘BAT BOR JOYDA YUKSALISH BO‘LADI

G‘aybulla TURSUNOV,
xonanda, “Do‘stlik” ordeni sohibi

Odam har qanday mukofot qarshisida xuddi xayrli sinov oldida turgandek his qiladi o‘zini. Mukofot berilgani bilan qo‘lingizdagi mikrofon o‘z-o‘zidan o‘zgarib qolmaydi, ovozingiz boshqacha yangrab ketmaydi, sahnaga chiqqaningizda tinglovchi ro‘parasida turish mas’uliyati yengillashmaydi. Biroq bu ajoyib hodisa bir paytlar yolg‘iz boshlagan yo‘lingizda hamrohlar ko‘payganini, yo‘l kengayganini tushunasiz va bundan juda xursand bo‘lasiz.

Biz bugun shunday bir davrda yashayapmizki, mashhur bo‘lish hech qachon hozirgidek oson, hozirgidek mo‘rt bo‘lmagan. Qo‘lingizda telefoningiz va bir oz omadingiz bo‘lsa, bas, bir kechada millionlab odamlarning ko‘ngliga kirib borishingiz mumkin. Algoritmlar sizni tepaga ko‘taradi, odamlar videongizni ulashadi, layklar, izohlar, ulashishlar sizni raqamli dunyoda yashin tezligida tanitadi. Biroq bu hali san’atkor bo‘ldingiz degani emasligini ich-ichingizdan his qilasiz. Trend degan narsa — suv ustidagi ko‘pikday gap. U juda tez ko‘tariladi, quyosh nurida turli ranglarda jilvalanadi, shamol ozgina esishi bilan esa yo‘q bo‘lib ketadi.

Ha, bugun tinglovchi diqqatini ushlab turish favqulodda qiyinlashgan. Odamlar o‘n soniyali videolarni o‘tkazib ko‘rishga o‘rgangan zamonda uch, besh daqiqali qo‘shiq bilan ularning yuragida qandaydir iz qoldirish nihoyatda mushkul.

Ba’zida o‘ylab qolaman: bugun biz qo‘shiq yaratyapmizmi yoki shunchaki “musiqiy kontent” ishlab chiqyapmizmi? To‘g‘ri, barcha bozorlarda hamma narsa tez sotilishi, tez iste’mol qilinishi kerak. Lekin, o‘ylashimcha, chinakam qo‘shiq, kuy vaqt tushunchasidan tashqarida yaraladi, bu jarayonga daqiqaning, soatning ahamiyati yo‘q. Muxlislaringiz millionga yetar, lekin shu jarayonda o‘zingiz ijodkor sifatida kichrayib borayotganingizni sezmay qolasiz.

So‘nggi paytlarda o‘zimda bir holatni ko‘p kuzataman. Yangi qo‘shiq tayyor bo‘lgach, uni studiyada tinglayotganimizda, beixtiyor “Buni ijtimoiy tarmoqda qanday kutib olishadi, trend bo‘lib ketarmikan?” degan xayol o‘tadi. Aslida, bu o‘ta xavfli kutilma, hissiyot. Chunki sen auditoriyaning bugungi, balki o‘tkinchi injiqliklariga moslashishni boshlaysan. San’atkor auditoriya ortidan quvishi kerakmi yoki auditoriyani o‘z ortidan ergashtirishi kerakmi degan savol meni har kuni o‘ylantiradi. Tinglovchiga u xohlagan narsani beraversang, u seni tez qabul qiladi, lekin xuddi shunday tez unutadi. Unga kutilmagan, balki birinchi eshitishda g‘alati tuyulgan, lekin chuqurroq ma’no, mohiyat beradigan narsa taqdim etsang, tavakkalchilik bo‘lishi mumkindir, ammo yuragingga yaqin yo‘nalishni tanlagan bo‘lasan.

Yurakka yaqin yo‘nalishni esa ildizlarimizdan topamiz. Musiqada eng muhim narsa, o‘ylashimcha, ildizimiz. Ildizini milliy musiqamizdan, maqomlarimizdan, mumtoz g‘azallardan uzib qo‘ygan estrada uzoqqa bormaydi. Daraxtning shoxi qancha baland bo‘lsa, ildizi ham shuncha chuqur bo‘lishi kerak-ku. Tinglovchining didi pasayib ketdi deb shikoyat qilish oson. Lekin uning didini tarbiyalash bizning, san’atkorlarning asl burchi. Agar biz faqat tayyor va yuzaki narsani bersak, xalq ham shunga asta-sekin ko‘nikadi. Shu bois, qo‘shiqdan qo‘shiqqa rivojlanishga, o‘sishga, ulg‘ayishga urinyapman. Men ijro etayotgan kuylarning umrini uzaytirish uchun harakatdaman.

> **Aslida, bosh maqsadim ham shu — yillar o‘tib ham uyalmay eshitish mumkin bo‘lgan, odamlar xotirasining qaysidir burchida muhrlanib qoladigan nafis, go‘zal, samimiy musiqa qoldirish. Vaqt sinovidan o‘tish, menimcha, bugungi estrada poygasida g‘olib bo‘lishdan ko‘ra ancha qiyin, lekin haqiqiy san’atkor bo‘lishni niyat qilganlar uchun yagona to‘g‘ri yo‘ldir.**

Yuqorida aytib o‘tganimdek, shu to‘g‘ri yo‘lning kengaygani, davlatimiz rahbari tomonidan yuksak mukofotga loyiq ko‘rilganim men kabi yosh ijodkorlar qalbida shavq, ilhom va mas’uliyat hissini oshiradi, yanada yaxshiroq ijodiy ishlar qilishga undaydi.

FUQAROLIK TUYG‘USI VA DAXLDORLIK HISSI

> **Yurtimizda mustaqilligimizning 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida o‘tkazilyapti. Mana bunday yangiliklar esa bizni chindan ham yagona vatan, yagona xalq bo‘lib jipslashtirmoqda.**

Maxsat QO‘YLIYEVA

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risida”gi farmoni yurtimizda inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ezgu ishlarning yana bir tasdig‘i bo‘ldi. Mazkur tashabbus mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida amalga oshirilayotgani biz uchun yanada ahamiyatli. Tinch va osuda O‘zbekistonga 28 yil avval ko‘chib kelgandim. Lekin pasportim yo‘qligi sabab saylovlarga qatnasholmas, rasmiy tadbirlarga kira olmasdim.

Ota-onam Tojikistonda vafot etdi. Ana shu hujjat yo‘qligi sabab bora olmadim. Armonim osmon qadar edi. Bugun hayotimda uzoq yillar davomida kutgan eshiklar ochildi. His etganim shuki, fuqarolik degani inson qadri, huquqi, Vatanga daxldorlik ifodasi ekan.

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida Surxondaryoda istiqomat qilayotgan men kabi 90 kishi fuqarolikka qabul qilindi. Bu mamlakatimizda inson manfaatini ta’minlashga qaratilgan siyosatning muhim davomi sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur hujjat, avvalo, O‘zbekiston hududida doimiy yashayotgan men kabi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy maqomini mustahkamlaydi. Jamiyat hayotida teng huquqli ishtirok etishi imkonini beradi.

Pasport topshirish marosimida ta’kidlangan bir gap e’tiborimni tortdi. 2016-yildan shu kungacha Surxondaryodan 1816 shaxs O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilinibdi. Shu yilning o‘zida shundaylardan yana 264 tasi O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olibdi. Bu raqam shunchaki statistika emas, fuqarolik masalasiga insonparvarlik va huquqiy adolat tamoyillari asosida yondashuv kuchayganini ko‘rsatadi. Har bir raqam ortida men kabi inson, uning oilasi va vatan bilan bog‘liq ko‘p yillik hayot yo‘li turibdi.

Fuqarolik nafaqat huquqiy maqom, balki insonning o‘zini shu yurtning to‘laqonli va daxldor a’zosi sifatida his etishiga xizmat qiladigan muhim qadriyatdir. Buni ayni kunlarda ushbu baxtga muyassar bo‘lgan men kabi yuzlab yurtdoshimiz alohida e’tirof etmoqda. Hayajondan, xursandlikdan o‘zimni yig‘idan to‘xtatolmay qoldim. Bu oddiy hujjat emas, vatanning himoyasida ekaningni anglatuvchi katta ishonch!

Yurtimizda mustaqilligimizning 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida o‘tkazilyapti. Mana bunday yangiliklar esa bizni chindan ham yagona vatan, yagona xalq bo‘lib jipslashtirmoqda.

O‘zbekistonda uzoq yillar davomida yashab, mehnat qilib, oila qurib, farzandlarini voyaga yetkazayotgan men kabi insonlar o‘z hayotini shu zamin bilan bog‘lagan. Ota-bobolarimiz bitta vatanda yashashgan. Birov chegara demagan. Chegaralanish bo‘lganu, bobolarimiz Tojikistonda qolib ketgan. 1998-yilda Tojikistondan ko‘chib kelgandim, bolalarimning pasporti bor edi. Chunki ular ona vatan — O‘zbekistonda tug‘ilgan edi. Ular “Ona, siz qachon pasport olasiz”, deb so‘rashardi. Davlatim menga bir kun fuqarolikni berishiga ishonardim. O‘sha kun keldi.

Termiz tumani

MEHR VA E’TIBOR QANOTIDA

Umrim maktabda o‘tdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Yosh avlodga yillar davomida Alisher Navoiyning saxovati, Boburning sog‘inchi, Cho‘lponu Qodiriyning millat yo‘lidagi fidoyiliklari haqida so‘zladim. Ona tili va adabiyot darslarida bolalarimga “Inson faqat o‘zi uchun yashamasligi kerak, el dardi bilan yongan yurak chinakam tirikdir”, deb uqtirdim. Qirq yildan ortiq pedagogik faoliyat, nafaqaga chiqqach, mahallada odamlar dardi bilan yashash, to‘rt farzandni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazish… Biroq chinakam hayot saboqlari sinfxonalarda emas, taqdir bizni birovning dardi bilan ro‘baro‘ qilgan damlarda olinarkan.

Ozodaxon YUSUPOVA,
xalq ta’limi faxriysi

Maqsudbek bizga uzoqroq qarindosh bo‘lsada, jigarimizning bir parchasi edi. U murg‘ak yoshidanoq og‘ir sinovlarga yuzma-yuz bo‘ldi: ikki yoshida otadan, o‘n ikki yosh ostonasida esa onadan ayrilib, hayotning qahratoni qarshisida qoldi. Uning ko‘zlarida bolalarga xos bo‘lmagan ulkan mung va og‘riqni ko‘rganimda yuragim uvishdi. Maqsudbekni yolg‘iz qoldirishga vijdonim ham, bir umr mehr ulashib yashagan onalik qalbim ham aslo yo‘l qo‘ymasdi. Men uni 2019-yilda qaramog‘imga olar ekanman, unga shunchaki rasmiy tarbiyachi emas, ko‘nglini isituvchi chinakam ona, sirdosh va suyanchiq bo‘lishni niyat qildim. “O‘g‘lim, jigarbandim, endi sen yolg‘iz emassan, yoningda biz bormiz”, dedim bag‘rimga bosib.

Maqsudbek xonadonimizga odobi, kamtarligi va kitobga muhabbati bilan kirdi. Tunlari chiroq yorug‘ida dars tayyorlashini, ko‘zlarida yashiringan yuksak maqsadlarni ko‘rib, uning kelajagiga ishonchim kundan kunga ortib bordi. U o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ydi — insonlar dardiga malham bo‘ladigan, xalqiga xizmat qiladigan malakali shifokor bo‘lish.

Maqsudbek biror kun o‘zini yolg‘iz yoki suyanchiqsiz his qilmadi. Men uni bag‘rimga olgan kundan boshlab yurtimizda inson qadri amalda qanday ulug‘lanayotganiga, ayniqsa, ota-ona mehriga tashna yoshlar e’tibordan chetda qolmasligiga shaxsan guvoh bo‘ldim.

O‘g‘lim uchun davlat tomonidan har oy moddiy ta’minot ajratib borildi. Bu yordamni uning sifatli ta’lim olishiga, sport bilan shug‘ullanishiga yo‘naltirdik. Mana shunday e’tibor tufayli u 10-11-sinflarda Farg‘ona shahridagi “Ideal orzular” xususiy maktabida puxta bilim oldi. 2019-yili imtiyozli ipoteka krediti asosida ko‘p qavatli uylardan xonadon ajratildi. Oylik to‘lovlarini to‘lab boryapmiz, nasib qilsa, Maqsudbek oila qurguniga qadar bu xonadon rasman uning nomiga o‘tadi.

2025-yilda esa tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi orqali davlatimiz rahbari nomidan unga zamonaviy kompyuter jamlanmasi tuhfa etildi. O‘sha kuni bolamning ko‘zlari quvonchdan qanday porlaganini so‘z bilan ta’riflash qiyin. U uchun zamonaviy texnologiyalar olamiga yangi yo‘l, yangi marralar ochilgan edi.

Yuragimizga eng katta quvonch va iftixor bag‘ishlagan voqea esa shu yili sodir bo‘ldi. Maqsudbek Toshkent davlat tibbiyot universiteti stomatologiya fakultetiga o‘qishga kirdi. Eng quvonarlisi, ota-ona qaramog‘isiz qolgan iqtidorli yoshlar uchun ajratilgan alohida davlat granti asosida talabalik baxtiga erishdi! Ushbu grant butun o‘qish davomida kafolatlangani esa quvonchimizga quvonch qo‘shdi.

Natijalar e’lon qilingan kuni ko‘z yoshlarimni to‘xtata olmadim. To‘rt farzandim talaba bo‘lganida qanchalik quvongan bo‘lsam, Maqsudbekning bu g‘alabasidan undan-da ortiq cheksiz faxr, shukronalik hissini tuydim. Oq xalat kiyish arafasida turgan o‘g‘lim Maqsudbekka qarab, dildan duo qilaman: ilohim, qadaming hamisha qutlug‘ bo‘lsin, bolam! Xalqimizning dardiga darmon bo‘ladigan, kasbiga sadoqatli, malakali shifokor bo‘lib yetishgin.

O‘z navbatida, bizga mana shunday imkoniyatlarni yaratib, xalqining har bir farzandini ardoqlagan davlatimizga va barcha ezgu niyatli insonlarga bir ona sifatida samimiy minnatdorlik bildiraman.

Uchko‘prik tumani

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.
29305 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60